

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
BOSHLANG‘ICH TA‘LIM USLUBIYOTI
PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA‘LIM-TARBIYA
JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK
MEXANIZMLARI

Bajaruvchi: BTU fakulteti

4-bosqich talabasi

Qilicheva Nigina

Ilmiy rahbar: dots.G.Q.To‘laganova

Navoiy – 2013 y

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Psixologiya kafedrasining

2012-yil 4-sentabrdagi 2-sonli yig`lish qaroridan

K O`CHIRMA

Qatnashdilar: dots. G`.Normurodov, dots. Bobomirzayev X.B.

Katta o'qituvchilar: Begmanova G., Qodirova M., Ermatova G.

O'qituvchilar: Safarova D., Begmatov R., Xalilov S., Elchiyeva D., Shukurov B., Ikromov O.

K U N T A R T I B I

2012-2013-o`quv yilida _____ fakulteti
_____ ta`lim yo`nalishi talabasi
_____ ning bitiruv malakaviy ishi mavzusini
tasdiqlash to`g`risida

E S H I T I L D I :

Kafedra mudiri: dots. G`.Normurodov so`zga chiqib, kafedra a`zolarini bitiruv malakaviy ishi mavzusi bilan tanishtirdi va mavzuning dolzarbligi bugungi kundagi ahamiyatini nazarda tutib:

« _____
_____ » nomli bitiruv malakaviy ishining mavzusi
qilib tasdiqlansin.

Ilmiy rahbar etib _____ belgilansin.

Kafedra mudiri:

dots. G`.Normurodov

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Boshlang`ich ta`lim uslubiyoti fakulteti

Psixologiya kafedrası

«TASDIQLAYMAN»

Kafedra mudiri dots. G`Normurodov

_____ «__» _____ 2012-yil

MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO`YICHA TOPSHIRIQ

Talaba _____

1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi _____

_____, 20__-yil kafedraning _____ sonli majlisida ma`qullangan.

2. Bitiruv malakaviy ishini bajarish muddati _____

3. Bitiruv malakaviy ishining topshirish muddati «__» _____ 20__-yil

4. Bitiruv ishning bajarilishiga doir boshlang`ich ma`lumotlar:

A. Mavzu yuzasidan materiallar to`plash _____

B. Dastlabki olingan materiallarni ishlab chiqish _____

V. Adabiyotlar majmuasini tuzish _____

G. Tadqiqot bosqichlari xulosa va takliflar _____

5. Malakaviy bitiruv ishi bo`yicha o`tkazilish lozim bo`lgan tadqiqotlar

6. Bitiruv ishi bo'yicha mavzu mundariyasi va maslahatchi o'qituvchilar

| № | Mundarija | Maslahatchi o'qituvchi | Imzo, sana | |
|----|-----------|------------------------|-------------------|---------------------|
| | | | Topshiriq berildi | Topshiriq bajarildi |
| 1 | | | | |
| 2 | | | | |
| 3 | | | | |
| 4 | | | | |
| 5 | | | | |
| 6 | | | | |
| 7 | | | | |
| 8 | | | | |
| 9 | | | | |
| 10 | | | | |
| 11 | | | | |
| 12 | | | | |
| 13 | | | | |
| 14 | | | | |
| 15 | | | | |

7. Bitiruv ishining bajarish rejasi.

| № | Bitiruv ishining bosqichlarining nomi | Bajarish muddati | Tekshiruvdan o'tganlik belgisi | |
|----|---------------------------------------|------------------|--------------------------------|--|
| 1 | | | | |
| 2 | | | | |
| 3 | | | | |
| 4 | | | | |
| 5 | | | | |
| 6 | | | | |
| 7 | | | | |
| 8 | | | | |
| 9 | | | | |
| 10 | | | | |
| 11 | | | | |
| 12 | | | | |
| 13 | | | | |
| 14 | | | | |
| 15 | | | | |

Bitiruv malakaviy ishi rahbari _____

Topshiriqni bajarishga oldim _____

Topshiriq berilgan sana « ____ » _____ 2012-yil

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Psixologiya kafedrasining

2013-yil _____dagi ____-sonli majlis qaroridan

K O` C H I R M A

Qatnashdilar: dots. G`.Normurodov, dots. Bobomirzayev X.B.

Katta o'qituvchilar: Begmanova G., Qodirova M., Ermatova G, Safarova D.

O'qituvchilar: Xalilov S., Begmatov R., Elchieva D., Shukurov B., Ikromov O., Otaqulova D.

K U N T A R T I B I

Bitiruvchi talabalarning bitiruv malakaviy ishi muhokamasi.

E S H I T I L D I :

Kafedra mudiri: dots. G`.Normurodov so`zga chiqib, kafedra a`zolarining Psixologiya fani bo`yicha tayyorlagan bitiruv malakaviy ish haqida to`xtalib, ishning to`liq talab asosida tayyorlanganligini, ilmiy rahbarlarning yakuniy xulosasi, ichki va tashqi olingan taqrizlarning ijobiyiligini, zaruriy hujjatlar rasmiylashtirilganligini ta`kidlab o`tdi.

Shundan so`ng bitiruvchi: _____

O`z mavzusi bo`yicha uning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, olib borilgan uslubiy ishlarning natijalari haqida o`zining xulosa va tavsiyalarini bayon etdi.

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi yuzasidan berilgan savollarga to`liq javob qaytardi.

MAJLIS QAROR QILDI:

Bitiruvchi: _____

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi tugallangan ish deb hisoblansin.

1. Bitiruv malakaviy ish himoyaga tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri:

dots. G`.Normurodov

*DAVLAT ATTESTATSIYASI KOMISSIYASINING
R A I S I G A
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI*

_____ fakulteti
_____ ta`lim yo`nalishi
bitiruvchi kurs talabasi _____ ning

*Reyting qaydnoma ko`chirmasi, malakaviy bitiruv ishi rahbarining mulohazasi,
kafedraning ishni himoyaga tavsiya etish haqidagi xulosasi, olingan taqrizlar ilova qilinadi.*

Fakultet dekani: _____

Navoiy davlat pedagogika instituti
Psixologiya kafedrasining malakaviy bitiruv ishi haqidagi
X U L O S A S I

_____ ta`lim yo`nalishi

mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi kafedra yig`ilishida muhokama qilingan va davlat attestatsiyasi komissiyasining himoyasiga tavsiya etiladi.

Kafedra mudiri:

dots. G` .Normurodov

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING BAHOLASH MEZONI

Psixologiya kafedrası

HIMOYA VAQTI « _____ » _____ 20__-yil

| | | | |
|------------------------------------|--|-------------------------------|--|
| <i>Mavzuning dolzarbligi</i> 12 | <i>Bajarilgan ishning mustaqillik darajasi</i> 32 | <i>Amaliy ahamiyati</i> 16 | <i>Adabiyotlardan foydalanish darajasi</i> 10 |
| | | | |

| | | | |
|------------------------------------|---------------------|--------------------|-----------------|
| <i>Ishning rasmiylashtirilishi</i> | <i>BMI himoyasi</i> | <i>Umumiy ball</i> | <i>% (foiz)</i> |
| 10 | 20 | 100 | % |
| | | | |

DAK raisi: _____

DAK a`zolari _____

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| <i>Kirish</i> | 9 |
| 1-BOB. PSIXIK JARAYONLARNING BOSHLANG'ICH SINFLARIDA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI | 11 |
| <i>1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sezgi, idrok, xayol, diqqat, xotiraning rivojlanishi</i> | 11 |
| <i>1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkur va nutqning rivojlanishi</i> | 19 |
| 2- BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI | 37 |
| <i>2.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishi uchun qo'llaniladigan shart –sharoitlar</i> | 37 |
| <i>2.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash - sog'lom ma'naviyatning mezoni sifatida</i> | 43 |
| <i>2.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida psixik jarayonlarini aniqlash metodlari</i> | 52 |
| <i>Xulosa</i> | 70 |
| <i>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</i> | 72 |

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: bugungi kunda boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etish, uning samaradorligini oshirish, kichik maktab yoshdagi bolalarga ta'lim–tarbiya berishning pedagogik va psixologik asoslarini mukammallashtirishga xizmat qiladigan qator ilmiy qarashlar, pedagogik nazariyalar shakllanganki, ular xarakteriga ko'ra, shaxs kamolotini, uning barkamol shakllanib, rivojlanib borishini ta'minlashga xizmat etuvchi ta'lim – tarbiya jarayonini tashkil qilish imkonini beradi. Sohalari bo'yicha ta'lim mazmunining negizini belgilovchi ko'rsatkichlar boshlang'ich ta'limning Davlat ta'lim standartlarida berilib, ularda maktabgacha ta'lim jarayoni bilan boshlang'ich ta'lim jarayoni orasidagi uzviylik, fanlararo aloqadorlik, ta'limning insonparvarlik, milliylik kabi tamoyillar o'z aksini topgan. Boshlang'ich ta'lim jarayoni esa maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonining uzviy davomi bo'lishi bilan bir qatorda, ta'limning navbatdagi yuqori bosqichi uchun zamin hozirlashni ham o'z vazifasi deb e'tirof etadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishning psixologik mexanizmlari ishlab chiqishda eng samarali va qulay, yo'l – yo'riqlari va usullarni aniqlab, yoshlarni barkamol shaxs qilib voyaga yetkazishni nazarda tutadi. Shu bilan birga boshlang'ich ta'limdan ko'zda tutilgan samarali natija boshlang'ich ta'lim va uni tashkil etish tamoyillari boshlang'ich ta'lim konsepsiyasida e'tirof etilgan g'oyalar asosida yaratilgan darslik, o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyalar, boshlang'ich ta'limni tashkil etish metod va usullari, innovatsion g'oyalari o'qitishning yangi avlod vositalariga bog'liq hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning vazifasi: o'quv faoliyati boshlang'ich sinf o'quvchi uchun nafqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Bu pedagogdan murakkab bilim talab etadi. Yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar - o'yin, muloqot va mehnat faoliyati ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga

erishish motivlari bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishda, shuningdek, tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishiga ham imkoniyat yaratadi.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishning psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish va o'rganishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning ob'yekti: Navoiy shahridagi 2 - sonli maktabning boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3 A - sinf o'quvchilari.

Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot metodlari: kuzatish, tajriba sinov, bolalarning mustaqil va erkin fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash tamoyillari tahlil va talqin qilish, suhbat, anketa va savol – javoblar asosida olingan ma'lumotlarni o'zining pedagogik faoliyatida tekshirishdan o'tkazgan materiallar asosida talqin qilinadi. Shu bilan birga turli xildagi test variantlari, savolnomalar, faoliyat natijalarini tahlil qilish metodlaridan foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy qismi: kirish, ikki bob, besh band, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1-BOB. PSIXIK JARAYONLARNING BOSHLANG'ICH SINFI

O'QUVCHILARIDA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sezgi, idrok, xayol, diqqat, xotiraning rivojlanishi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlari deyilganda uning diqqati, sezgi, idrok, xotira, nutq, tafakkur, xayol, hissiyoti kabi psixik proseslarning o'ziga xos xususiyatlari, madaniy xulq – atvori tushuniladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritilganda, albatta bunda gap olti yoshli bola nutqining boyib borishi, diqqatni bir yerga to'play olish imkoniyatlarining ortib borishi, narsalarning sifatlarini farq qila olishining murakkablasha borishi, idrokning takomillasha borishi, tasavvur va xotirasining boyib borishi, obrazli va mantiqiy tafakkur, xayol va his – tuyg'ularining rivojlanishi, xulq – atvor va xarakterning shakllanishi haqida boradi. Quyida mana shu masalalarni yoritishga harakat qilamiz.

Bola olti yoshga lug'ati boyib, kundalik hayoti va qiziqishlari doirasiga kiradigan har qanday holat, narsa, hodisa va voqealarni boshqa kishilarga oson tushintirib bera oladi. Nomal o'sgan bola uch yoshida 500 va undan ortiqroq so'zni ishlatadi, olti yoshli bola 3000 dan to 7000 gacha so'zni ishlatadi. Olti yoshli bolaning lug'ati ot, fe'l, olmosh, sifat, son va bog'lovchilardan tashkil topadi. Olti yoshli bolaga nutqning o'zi uchun yangi bo'lgan tomonini o'rganishga intilib, o'ynagan holda uni analiz qila boshlaydi.

Bola aynan shu yoshda ona tili sistemasiga rioya qilgan holda gapira boshlaydi. Bog'chaga qatnaydigan bola nutqini anglagan holda analiz qilish malakasiga ega bo'ladi. U so'zni tovush jihatdan analiz qila oladi, so'zdagi tovushlar tartibini aniqlay biladi. Bola so'zdagi bosh tovushni intonatsiya bilan ajratgan holda so'zni oson, quvonib talaffuz qiladi. U xuddi shu tarzda so'zdagi ikkinchi va undan keyingi turgan tovushlarni ham ajrata oladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari so'zning tovush tarkibini analiz qilishga maxsus o'rgatilsa, uning o'zi ham tovush tarkibini aniqlash maqsadida so'zni

talaffuz qila boshlaydi. Bu o`qish va yozishni muvaffaqiyatli egallash imkonini beradi. Mobodo bolani bunga maxsus o`rgatilmasa, u hatto oddiy so`zlarning ham tovush analizni qilila bilmaydi. Chunki, og`zaki muomalada bo`lish bola oldiga so`zning tovush analizini maxsus rivojlantirishni maqsad qilib qo`ymaydi. Shuning uchun ham bunday bolalar rivojlanishda bir oz orqada qoladilar.

Nutqning asosiy vazifasi aloqa qilishdir. Olti yoshli bolaning nutqi tevarak – atrofdagilarga tushunarli bo`ladi. Bola gap nima haqida borayotgan bo`lsa, o`sha narsani yetarli me`yorida to`liq tasvirlab, shuningdek eshitgan tarixiy voqea va sodir bo`lgan narsa haqida hikoya qilib bera oladi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari nutqi madaniy nutq bo`lishi uchun faqat gapni to`g`ri tuzish, bayon qilayotgan fikrning aniq, tushunarli bo`lishining o`zi yetarli emas, bunda faoliyatni o`zi planlashtira oladi. Bunda u nima qilishini, qanday qilishini va u yoki bu qanday izchillikka bajarmoqchi ekanligini gapirib bera oladi. Planshtirish esa so`zsiz, bola diqqatini oshiradi.

Shuni aytish kerakki, olti yoshli bolalar o`z xatti – harakat va xulq – atvorlarini boshqara olsalar –da, ularda ixtiyorsiz diqqat ustun turadi. Odatda bir xilda ish – harakatlaridan iborat bo`lgan, bolani o`ziga jalb eta olmaydigan faoliyat ustida diqqatni to`plash bu yoshdagi bolalarga qiyinlik qiladi. Bola diqqatining mana bu xususiyati esa ular bilan olib boriladigan mashg`ulotlarga o`yin elementini va faoliyat turini tez – tez almashtirib turishni kiritish zarurligidan dalolat beradi. Boshlang`ich sinf o`quvchilari, intellektual masalalar ustida diqqatni to`plab turishga qodirlar, lekin bunda ular tez charchaydilar.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari xotirasi intensiv rivojlanadi. Bolalikda idrok etilgan ba`zi bir voqea, hodisalar bir umr saqlanib qoladi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari voqea va hodisalarni ixtiyoriy esda olib qola biladi. Agar esda olib qolish lozim bo`lgan narsa o`yinning sharti yoki bola erishmoqchi bo`lgan niyatini amalga oshirishga ahamiyatli bo`lsa, unda bola so`zlarni berilgan tartibda, ish – harakatlarni tegishli ketma – ketlikda oson esda olib qoladi. Boshlang`ich sinf o`quvchilari esda olib qolish usullaridan ongli foydalana biladi. U esda olib qolish lozim bo`lgan narsanigina takrorlaydi hamda

esda olib qolinadigan narsani berilgan izchillikka tushunib, anglab olishga harakat qiladi. Shunday bo`lsa – da, bu yoshda ixtiyorsiz esda olib qolish ancha ustunligicha qoladi. Bola diqqatining faoliyat jarayonida ixtiyoriy ro`y berishi shu ishga nisbatan bo`lgan uning qiziqishini ko`rsatadi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari xayoli ancha yaxshi rivojlangan bo`ladi. Kuzatish ma`lumotlariga qaraganda, olti – yetti yoshli bola o`z xayolida turli – tuman voqealarni yarata oladi va unda o`zining ajoyib tomonlarini namoyon qiladi. Bola xayoli xotirasining mavjudligi ma`nosini mavjudligini tushunib esda olib qolish jarayonining samaradorligi ortishiga keng imkoniyat yaratadi tajribadan ma`lumki, bola ma`nosiz so`zlardan ko`ra ma`nodor tushunchalarni birmuncha tez va mustahkam eslab qolish xususiyatiga ega. Uning nutqi murakkab ta`limiga tayyorgarlik bosqichida kattalar bilan muloqotga kirishish, kishilarning fikrini o`qib olish va to`g`ri idrok qilish darajasida, nutqning tuzilishi esa grammatika qoidalariga mos, mantiqan izchil, ifodali, miqdor va ko`lam jihatdan fikr almashishga yetarli bo`ladi. U eshitga va ko`rganlari to`g`risidagi ma`lumotlarni tushuna oladi. O`zidagi axborotlarni muayyan tartibda bayon qila olad, aqliy faoliyat operatsiyalaridan o`rinli foydalanadi (ularni taqqoslaydi, oydinlashtiradi, guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi, hukm va xulosa chiqarishga harakat qiladi).

Yirik psixologlarning tadqiqotlari oqilona tashkil qilingan ta`lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalarning tafakkurini jadal rivojlantiradi. Masalan, ular lingvistika, fizika, matematikaga doir ilmiy tushunchalarni o`zlashtiradilar, soddaroq masala tuzadilar, yengilroq mashqlarni bajara oladilar, ijobiy va mahsuldor fikr yuritishga intiladilar.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining psixik tayyorligi to`g`risida gapirilganida ko`pincha muayyan reja asosida, tartibli, ko`p qirrali maqsadga yo`naltirilgan, o`zlari mantiqiy bog`liq, izchil boshlang`ich ta`limga zamin vazifasini o`tovchi psixik o`sish darajasini nazarda tutamiz. Shuningdek, ta`lim uchun o`sish darajasidan tashqari, bola turmushi va faoliyatining tafovutlari, sharoitlari, o`ziga xosligi, uning sihat – salomatligi, usuliy jihatdan tayyorgarligi, oddiy ko`nikmalarni o`zlashtirgani kabi omillarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida aytilganlarning hammasi bolaning maktab ta`limiga psixologik jihatdan tayyorgarligining ob`yektiv tomonlarini ifodalaydi.

Bola maktab ta`limiga psixologik tayyorlanishining sub`yektiv tomoni ham mavjuddir. Uning maktabda o`qish xohishi, intilishi, katta yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishish istagi mazkur tayyorgarlik bilan uzviy bog`liqdir. Bolada shu davrga kelib, o`qish, bilim olish haqida to`g`ri tasavvur shakllanadi. U maktab jamoasi a`zolarining ma`suliyatli vazifalarini anglaydi va ularga itoat qilishga, bilish aktivligi psixikasining sog`lomligidan dalolat beradi. Bolaning qiziquvchanligi doimo tevarak – atrofdagi olamni bilishga yo`naltirilgan bo`ladi. Bola o`ynayotib nara va hodisalarning o`rtasidagi aloqa va bog`liqlikni anglashga harakat qiladi. U masalan, qanday narsalar cho`kmasligini, suv yuzida suzib yurishini aytib bera oladi. Unda tevarak – atrofdagi hayot hodisalari to`g`risida ko`p savollar beriladi. Olti – yetti yoshli bolani dunyodagi hamma narsa: daryo, okeanning chuqurligi, suv tagida yashaydigan hayvonlarning qanday nafas olishi va hokazolar qiziqtiradi. Bola hamma narsani bilib olishga intiladi va muomala – munosabat jarayonida bilimlarga tayanishga, vaziyatni tasavvur etishga va berilgan savolga javob qaytarish uchun ma`qul yo`lni topishga harakat qiladi. Ba`zan narsalarni yechishga to`g`ri kelib qolganda, ularni real o`lchab va sinab ko`rishga urinadi. U faqat real vaziyatni tasavvur etib, unga go`yoki xayolida ta`sir ko`rsatadi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarida, ba`zan mantiqiy fikr yuritish hollari ham uchrab turadi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari diqqatining rivojlanishida ham ancha o`zgarishlar ro`y beradi. Tevarak – atrofdagi olam vola e`tiborini maftun etadi. Mabodo bolaning bilish aktivligi biror narsani o`zgartirishga yo`naltirilgan bo`lsa unda bola o`z diqqatini sinchkovlik bilan o`rganayotgan ob`yekt ustida ancha uzoq vaqt, to qiziqishi so`nguncha to`plab tura oladi. Agar olti – yetti yoshli bola o`zi uchun muhim bo`lgan o`yin bilan band bo`lsa, u sira charchamay ikki – uch soatlab o`ynay olishi mumkin. Mobodo bola o`ziga yoqmaydigan, qiziqarsiz faoliyatga diqqatini to`plashi lozim bo`lgudeb bo`lsa, unda u tez charchaydi, chalg`iydi va o`zini nohush xis etadi. Shuning uchun ham kattalar og`zaki

ko`rsatma berish yo`li bilan bola diqqatini ob`yektga yo`naltirilishi lozim. Masalan, “Bolalar, albomimizni ochamiz, qizil qalamni olib, varaqning yuqoridagi chap burchagiga (mana bu yerga) doiracha chizamiz va. h.k.” deb, ish harakat usullarini ko`rsatgan holda bolaning diqqatini zarur ob`yektga jalb qilish mumkin. Olti yoshli bola o`z motivlaridan ustun turadi. Bu motivlar ierarxiyasi deb ataladigan muhim hosila paydo bo`lganidan darak beradi. Olti yoshli bola kattalarga, tengqurlariga va kichkintoylarga yordam berishi uchun hatto qiziqarli o`yinlardan ham voz kecha oladi. Bunday holatlarda bola ijobiy his – tuyg`uni boshidan kechiradi. Va aksincha, agar bola o`zi uchun ahamiyatga ega bo`lgan ishda muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, uning iztiroblarining o`rnini shirinliklar va boshqa har qanday narsalar ham sira bosa olmaydi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari hissiyoti va irodasining rivojlanishida ham sezilarli o`zgarishlar ro`y beradi. olti yoshli bola emotsional his – tuyg`ularga juda boy bo`ladi. his – tuyg`u uning hayotida o`ziga hos huzur baxsh etadi. Olti yoshli bolaning hissiyoti tezda va yaqol alanga oladi. Bola bu yoshida o`zini ancha og`ir va vazmin tuta biladi, o`zining qo`rquvlarini, g`azablarini va ko`z yoshlarini yashra oladi, lekin bujuda zarur bo`lgan paytdagina sodir bo`ladi. Bola kechinmalarining eng kuchli va muhim manbai – uning boshqa kishilar bilan, ya`ni kattalar va bolalar bilan bo`ladigan o`zaro munosabati hisoblanadi. Boshqa kishilarning bolaga nisbatan ijobiy emotsiya namoyon qilishlariga bo`lgan ihtiyoji uning xulq – atvori va xatti – harakatini belgilab beradi. Bu ehtiyoj esa bolada sevgi, rashk achinish, baxillik va shu kabi murakkab hissiyotlarni yuzaga keltiradi. Odatda bolani yaqin kishilari suganida, unga yaxshi munosabatda bo`lganida, uning huquqini tan olganlarida, unga nisbatan doimo mehribon, e`tiborli bo`lganlarida u o`ziga ishonch hissini va himoya qilinayotganini his etish kabi emotsional holatni boshidan kechiradi. Bunday sharoitlarda bola xushchaqchaq, quvnoq, jismonan va pisxik jihatdan aktiv bo`lib o`sadi. Bola kamol topayotgan muhitidagi emotsional qulaylik shaxsning normal rivolanishiga imkon beradi. Unda boshqa kishilar bilan do`stona munosabatlar o`rnata bilish kabi ijobiy sifatlar hosil bo`ladi. Bola o`zining namoyon qilayotgan xatti – harakatiga

tevarak – atrofidagi yaqin kishilardan menatdan mustaqillikni vujudga keltirmay bilishga intilish mumkin emas. Shuning uchun bolalarga izohli o`qish, masalaning shatini sharhlash, muomoli vaziyatni yaratish va hal qilishni o`rgatish muhim ahamiyatga ega.

Ixtiyoriy eslab qolish ixtiyoriy esga tushurishning mahsuldorligi ko`p jihatdan o`quvchilar aqliy faolligining darajasiga bog`liq. aqliy faoliyat darajasi ularning eslab qolishni tashkil qilish boshqarish usullarini egalashiga uzviy alaqadordir. Mnemik (xotira) usullariga tarif yoki qoidalari so`zma – so`z eslab qolish, birlamchi va ikkilamchi qisimlarga ajratish, raqamlarni bir joyga to`plash, eng zarur tushunchalarga alohida e`tibor berish kiradi. Eslab qolish, esda saqlash, esga tushurish smaradorligi o`qish motivlariga bevoseta bog`liqdir. T.N.Balarich o`z tajribasida bir guruh o`quvchilarga o`quv matnini bundan keyin sira kerak bo`lmasligini ikkinchi guruhga undan tez kunda foydalanishini aytib o`tib o`zgartirishni tavsiya qilgan. Olingan natijalarga ko`ra birinchi guruhda faoliyatda qo`llash ustanovkasi yuqori samara bergan, matn tez eslab qolingan va uzoq vaqt esda saqlangan. L.V.Zankovning tadqiqotida ham eslab qolishga intilishni roli o`rganilgan uzoq vaqt eslab qolishga intilish ham yaxshi samara berishi isbotlangan. Shunga asoslanib psixologiyada fanga “Uzoq vaqt eslab qolish”, “Hamma vaqt esda saqlash” iboralari kiritilgan.

Umuman kattalarning xususan o`qituvchilarning muhim vazifalaridan biri o`quvchilarda materiallarni eslab qolish uchun muayyan intilishni, tarkib toptirish, ularga eslab qolishning usullarini, fikr yuritish operatsiyalarini (taqqoslash, tahlil qilishni) o`rgatishdan iboratdir.

Xotiraning mahsuldorligini oshirish uchun ta`lim tarbiyanida o`zini – o`zi nazorat qilish, materialni takrorlashda tekshirish, esga tushurush, mashq qilishdan unumli foydalanish zarur. Agar kichik maktab yoshidagi o`quvchilarda eslab qolish va eslash usullari o`rgatilmasa, ular materiallarni bevosita takrorlashda, uzoq vaqt to`xtalib qoladilar. Shuning uchun ham eslash qiyin mehnat (K.D.Ushunskiy) hamda tevarak – atrofdagi kishilar o`rtasida “obro`liroq”, “e`tiborliroq” mavqega erishish uchun harakat qila boshlaydilar.

Bola hayotining yettinchi yilida o`yin faoliyati borgan sari jiddiyroq va murakkabroq tus ola boradi. Bunda bola rolli o`yin qoidalarini so`zsiz bajaradi. Ayni shu yoshda rolsiz o`yinlar ham paydo bo`la boshlaydi. O`yinning bu turida ma`lum maqsadda erishish uchun qoidani bajarish albatta shart bo`ladi.

Odatda stol ustida o`ynaladigan o`yin, bekinmashoq kabi qoidali o`yinlar “Doktor – doktor”, “Magazin - magazin” kabi syujetli – rolli o`yinlardan farq qiladi. Masalan, eksperimentator uch yoshli bola bilan bekinmashoq o`ynaydi. Bola bekinmashoqdan keyin, eksperimentator uni darrov topa olmaydi. U o`zini xuddi qidirib topa olmaydigan solib, jo`rttaga bola oldida bir – ikki minut to`xtab turadi. Odatda go`dak o`yin qoidasini buzmay deb, o`zini tutib tura olmaydi va shu zahotiyiq “Men bu yerdaman!” deb o`zining turgan joyini ovoz chiqarib qo`yadi. Olti – yetti yoshli bola esa bekinmashoq o`yinini tamomila boshqacha o`ynaydi. Uning uchun eng asosiy narsa qoidani bajarish. Eksperimentator ikkita – uch va olti yoshli bolalarga birgalikda berkinishni taklif qiladi. Eksperimentator yana o`z berkingan bolalarni go`yo topa olmayotganga soladi. Dam o`tmay shivirlab gapirgan ovoz va sho`xlik eshitiladi: bunda go`dak o`zining turgan joyini bildirib qo`yishga intiladi, olti yoshli bolaning bunday qilishini man etib: “Jim, ovozingni chiqarma!”, - deb shivirlagan ovoz eshitiladi. Nihoyat, kattasi kichigining og`zini qo`li bilan berkitishga urinadi, oqibat shunga olib keladiki, go`dakni qoidaga bo`ysundirish uchun hatto keskin usullarni qo`llashgacha borib etadi.

Ana shu tarzda sekin – asta o`yin jarayonida ixtiyoriy faoliyatga intilish yuzaga chiqa boshlaydi. Bu esa bola hayotining yettinchi yili paydo bo`ladigan muhim psixologik yangi hosilalardandir. Bu psixologik hodisa bolani maktabda o`qishga tayyorlashda muhim rol o`ynaydi. Bolani maktab ta`limiga tayyorlashda didaktik va saxnalashtirilgan o`yinlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu o`yinlar keyinchalik maktabda o`qish jarayonida zarur bo`ladigan bilishga oid xatti – harakatlarning rivojlanishi uchun asos bo`ladi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining maqsad ko`zlangan ish – harakatlarni bajarishi vazifaning qiyinligiga va uni bajarish qancha vaqt davom etishiga, vazifani bajarayotganda muvofaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlikka

uchrashni faoliyatni maqsadga muvofiq uyushtirishda kattalarning me'yorda qatnashishi kabi ko'pgina holatlarga bog'liqdir. Agar bola oldiga qo'yiladigan topshiriq o'ta qiyin bo'lsa, bu bola psixikasiga salbiy ta'sir etadi, bola faoliyat hajmi oldida taslim bo'lib qoladi va o'z pozitsiyasini tezda qo'ldan boy berib qo'yadi. Topshiriqlarni izchil bosqichlarga taqsimlash, (ajratish), maqsadiga erishish usullarini eslatib turish bolaga faqat o'z ish – harakatlarni uyushtirishgagina yordam berib qolmay, balki ish-harakatlarning umumiy maqsadga yo'nalganligini ham oshiradi, unda vazifani mustaqil va izchil bajarish malakalarini shakllantiradi. Faoliyat jarayonida muvaffaqiyatsizlikka uchrash boladagi intilishni yo'qotadi va u ishni oxiriga yetkaza olmaydi. Ayrim olti yoshli bolalarda duch kelgan qiyinchiliklarga qarshi kurasha oladilar va uni yengishga harakat qiladilar.

Umuman aytganda boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z xatti - harakatini anchagina ahamyatga ega bo'lgan motivga bo'ysundira oladi. Katta yoshli kishi bola mativlarning tashkilotchisi, uning xatti – harakatlarini maqsadga yo'naltiruvchi hisoblanadi. Qarama – qarshi motivlar to'qnashib qoladigan vaziyatlar esa bola irodasi oldiga alohida talablar qo'yadi. Bu talabalar bolaga qiyinlik qiladi. Odatda zid vaziyatlarda motivlar bir – biri bilan kurashadi va bunda har gal ham axloqiy motiv g'alaba qilavermaydi, albatta. Bunday holatlarda kattalar bilan munosabatlarini saqlab qolish maqsadida bola ko'pincha yolg'on narsani o'ylab to'qiydi. Bolaning “Men olmadim...”, “Men tegmadim...” kabi iboralari ana shundan dalolat beradi. Agar katta yoshli kishi bolani kuzatib, uning harakat motivlarini tushunsa va bolaga o'zini anglab olishda oqilona yordam bersa, bola yolg'ondan voz kechishi mumkin, albatta.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga kirganida qarorni oqilona tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. U ayni chog'da uchta qiziqarli bo'lmasa-da, lekin ancha muhimroq, ahamiyatliroq motivga amal qilishi mumkin. Buning uchun uni kattalar qo'llab – quvvatlab turishlari kerak.

1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkur va nutqning rivojlanishi

Kichik maktab davrida bola u maktab o'quvchilariga qo'yiladigan har xil talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyorlanadi. Uning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofliqi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurning yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limriga tayyorlanyotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi uning psixologik rivojlanishi va shaxsning shakllanishidagi o'rni nihoyatda katta. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi rahbarligi ostida inson ongining turli asosiy shakllari mazmunini egallaydi va insoniy an'analar asosida harakat qilishni o'rganadi. O'quv faoliyatida bola o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashk qildiradi. O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola o'z atrofidagilar bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U o'zining hayoti tubdan o'zgarganini, unga yangi majburiyatlar nafaqat har kuni maktabga borish, balki o'quv faoliyati talablariga bo'ysunish ham yuklatilganligini his eta boshlaydi. Oila a'zolarining bola o'quv faoliyati, yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangi shakllardagi muomala munosabat uning ijtimoiy mavqei o'zgarganligini to'la his etishiga, o'ziga nisbatan munosabatining o'zgarishiga asos bo'ladi. Kattalar bolalarni amaliy jihatdan o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash borasida yaxshi o'qish, uynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shug'ullanishga o'rgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashishadigan, maslahatlashishadigan yangi bir o'rinni egallaydi. O'quvchining maktabdagi muvafaqqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida to'liq ijobiy asos bo'ladi. Bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o'rin egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari, atrofdagilar unga yosh

boladek emas. Balki o'z vazifalari, majburiyatlari bor bo'lgan, o'z faoliyat natijasiga ko'ra hurmatga sazovor bo'lishi mumkin bo'lgan alohida shaxs deb munosabatda bo'ladilar. Buning natijasida bolaning o'z-o'zidan oilasi, sinfi va boshqa jamoalardagi o'z o'rnini anglay boshlaganini ko'rish mumkin. Bu davrda bolaning "Men shuni xoxlayman" motividan "Men shuni bajarishim kerak" motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o'quvchida psixik zo'riqish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida balki xatti-harakatida ham yahni ma'lum darajada qo'rquvni kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon bo'ladi.

Bu davrga kelib bola atrofida gilar bilan o'zaro munosabatda ma'lum bir natijalarga erishgan, o'zi xohlayotgan narsalarni hamda, o'z oilasida o'zi egallagan o'rnini aniq biladigan bo'ladi. Shuningdek u o'zini o'zi boshqarish malakasiga ega bo'ladi, vaziyat va holatga qarab ish yurita oladi. Bu yoshdagi bolalar ularning xatti-harakatlari va motivlari ularning o'zlariga beradigan baholariga qarab "Men yaxshi bolaman" emas, balki bu xatti harakatlar o'z galar ko'z o'ngida qanday namoyon bo'lishiga qarab baholanishini tushuna boshlaydilar.

Maktabga kelish arafasida bolaning so'z boyligi turli masalalar bo'yicha o'z fikrining bayon eta oladigan darajada ortadi. Agar o'z yoshdagi normal rivojlanayotgan bola o'z nutqida 500-600 so'zni ishlatsa, olti yeshli bola 3000-7000 so'zni ishlatadi. Boshlangich sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, fehl, sifat, son va bog'lovchilardan iborat bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'z nutqlarida qaysi so'zlarni ishlatgan mahqul-ku, qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar. 6-7 yoshli bola o'z jumllarini murakkab grammatik tizimda tuza oladi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib nutqni o'zlashtirish ma'lum bir faoliyatga aylana boradi. 7-9 yoshli bolalarning o'ziga xos yana bir xususiyati borki, bola nutqda faqatgina o'z fikrini bayon etibgina qolmay, balki o'z suhbatdoshining diqqatini o'ziga jalb qilish uchun ham gapiradilar.

Bu davrda yozma nutq ham shakllanishini boshlaydi. Yozma nutq jumllarni to'g'ri tuzish va so'zlarni ham to'g'ri yozishga ma'lum talablar qo'yilganligi bilan xarakterlanadi. Bola so'zlarni qanday eshitgan bo'lsa,

shundayligicha yozilmasligini bilishi, ularni to'g'ri talaffuz etishga va yozishga o'rganishi zarur. Yozma nutq egallash asosida bolalarda turli tekstlar haqida ma'lumot ham yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endi shakllana boshlagani bois bolada hali o'zi yozgan fikrlarni so'z va harflarni nazorat etish malakasi hali juda kam. Lekin unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Ushbu mustaqil ijodiy ish maktab yoshidagi o'quvchida berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun material to'plash, asosiysini ajratib olish ma'lum ketma-ketlikda materialni bayon etish, reja tuzish malakasi yuzaga keltiradi. Jummalarni to'g'ri tuzish, aynan mazmunga to'g'ri keladigan so'zlarni topish va ularni to'g'ri yozish ham, tinish belgilarini to'g'ri quyish, o'z holatlarini topa olish, to'g'rilay olish ham aqliy rivojlanishining ko'rsatkichlaridan hisoblanadi.

O'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchining aql-idroki, sezgirligi, ko'zatuvchanligi, eslab qolish, esga tushurish imkoniyatlarini rivojlantirish uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Mazkur ta'lim jarayonida ularning bilimlari ko'lami kengayadi, bilimga qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Mazkur yoshdagi bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravonligi, o'tkirligi bilan boshqa yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, o'ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

7-10 yoshdagi o'quvchining idroki, uning xatti-harakati, uyini va mehnat faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. O'quvchi o'zining ehtiyoji, mayli, qiziqish va intilishi turmushi sharoitiga mos, shuningdek o'qituvchi tavsiya etgan narsalarni idrok qiladi.

Maktabga birinchi sinfga kelgan bola predmetlarning rangi, shakli va kattaligini, ularni makonda joylashishini bilish bilan birga ularni taqqoslay oladi. Maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun bola sensor rivojlanganlik darajasini yuqori bo'lishi juda muhim. Maktab yoshiga kelib normal rivojlanayotgan bola rasm va suratlar real hayotni aks ettirayotganligini yaxshi tushunadilar. Shuning uchun ham

surat va rasmlarda nimalar aks etganini real hayotga taqqoslagan holda bilishga harakat qiladilar. Bola rasmlarda atrof-hayotdagi narsalarni kichiklashtirib tasvirlanganligini anglay biladilar. Bu tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlantiradi. Chunki, bola shu rasmlar orqali olam go'zalligini turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va o'z munosabatini bildiradi.

Tafakkurning rivojlanishini kichik maktab yoshidagi bola psixikasining sog'lomligida uning bilish faolligida ko'rish mumkin. Bolaning qiziquvchanligi asosan atrof-olamni bilish, o'rganishiga qaratilgan bo'ladi. Bola uynab turib olam sir-sinoatlari, sabab- hodisalari va bog'liqlaridan xabardor bo'lishga intiladi. Masalan, bola o'zi mustaqil ravishda qanday predmetlar suvda cho'kishi, qaysilari esa so'zishini tadqiq qila oladi. Bola aqliy munosabatlarda faol bo'lsa, u shunchalik ko'p savol beradi va bu savollar asosan xilma-xil bo'ladi. Bolani qor, yomg'ir qanday yog'ishi, quyosh kechasi qayerda bo'lishi, mashina qanday qilib yurishi, yerdan osmongacha necha kilometr ekanligini bilish juda qiziqtiradi. Bu ularning juda ko'p asosan « Nima uchun? », « Qanday qilib? », « Nima orqali? » savollariga javob olishga qaratilgan bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar asosan o'zlari ko'rib turgan narsa haqida chuqurroq fikr yurita oladilar.

Demak, kichik maktab yoshidagi bolalar tafakkurining asosiy turi obrazli tafakkurdir. 6-10 yoshli bola albatta mantiqiy ham fikrlay oladi, lekin bu yosh asosan ko'rganlariga tayanib ta'lim olishga seznetiv bo'lgan davr hisoblanadi. So'zsiz bugungi jamiyatimizda bolalarning aqliy rivojlanishi yangi bilimlarni tuzilish tipiga ham bog'lik bo'lib, ular ma'lum darajada shakllangan kattalar tomonidan tuziladi. Chunki, intellektual rivojlanish ijtimoiy omillar bilan belgilanadi - individ ijtimoiy munosabatlar bilan o'zgaradi. Bolaning maktabda muntazam - ravishda o'qishga o'tishi uning atrof - hayotdagi narsa-hodisalarga nisbatan fikrini va munosabatlarini o'zgarishiga olib keladi. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning tafakkuri mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash, tahlil qilishning turli usullarini qo'llashdek o'ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalardan va o'smirlardan farq qiladi. Ta'lim jarayonida tafakkur

operatsiyalariga, mustaqil fikrlashga o'rgatish kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni kamol toptirishning garovidir.

O'quv faoliyat psixik funksiyalarni yuqori rivojlanganlik darajasini talab etadi. Bolaning diqqati, xotira va tasavvuri mustaqil tus ola boshlaydi. Lekin odatdagi holat va vaziyatlarda bolaga o'z psixik funksiyalarini yuqori darajada tashkil etish hali bir muncha qiyinroq.

6,7-10,11 yoshli bolalar bilish jarayonlaridagi ixtiyoriylik irodaviy zo'riqish asosidagina, bola o'zini atrofdagilarning talabi yoki shaxsiy harakati intilgandagina yuzaga kelishi mumkin.

Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarida diqqatni irodaviy zo'r berish bilan boshqarish va vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo'lmaydi. Buning asosiy sababi ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Bolalarda ixtiyorsiz diqqat ko'proq rivojlangan bo'ladi. Boshlangich sinf o'quv materiallarining yaqqolliigi, yorokinligi, jozibadorligi, o'quvchida beixtiyor histuyg`ular uyg'otadi, irodaviy zo'riqishsiz, osongina fan asoslarini egallash imkonini beradi. 1 -2 sinf o'quvchilari diqqatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning yetarlicha barqaror emasligidir. Shuning uchun ham ular diqqatlarini muayyan narsalarga qarata olmaydilar va diqqat ob'yektda uzoq tura olmaydi.

Ta'lim jarayoni kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqil akliy mexnat qilish, misol-masalalar yechish, mashqlar bajarish, takrorlash irodaviy zo'r berish jarayonida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi.

Bu yoshdagi bolada ixtiyoriy diqqatni jamlash, tashkil qilish, zarur bo'lsa uni taqsimlash, ongli ravishda boshqarish o'quvi shakllana boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi bola ma'lum darajada o'z faoliyatini o'zi mustaqil rivojlantira oladi. U o'z rejasini, u yoki bu ishni kanday ketma-ketlikda bajarishini so'z bilan ifodalab bera oladi. Rejalashtirish so'zsiz bolaning diqqatini tashkil eta oladi va rivojlantiradi. Ularda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar so'zsiz o'z

diqqatlarini intellektual masalalarga qarata oladilar, lekin bu juda katta irodaviy kuchni va yuqori motivatsiyalarni tashkil etilishini talab qiladi.

Bolaning xayoli tevarak-atrof taassurotlari, tasviriy sanhat asarlarini yetarli darajada aks ettirishda vujudga keladi. Obrazlar, shartli belgilar, tabiat manzaralari jamlanib o'quvchilarda xayol paydo bo'ladi.

Xotiraning rivojlanishi. O'quv faoliyati boladan berilgan o'quv materiallarini eslab qolishini talab etadi. O'qituvchi o'quvchisiga nimalarni eslab qolishi zarurligi haqida ko'rsatmalar beradi. O'quvchi nimani eslab qolishi kerakligini takrorlaydi, uni tushunib olishga harakat qiladi. Lekin bu yoshda ixtiyorsiz xotira shubhasiz ustunlik qiladi. Bolaning xotirasida saqlab qolishini asosan uning ishga bo'lgan qiziqishi belgilab beradi. O'quv materialini tushunish eslab qolishning asosiy sharti hisoblanadi.

Tasavvurning rivojlanishi. Dars jarayonida o'qituvchi turli vaziyatlarni tasavvur qilishini so'raydi. Bu holat albatta biron-bir yordamchi qurollar-predmetlar, maketlar, sxemalar bo'lgan taqdirdagina o'quvchi tasavvurini rivojlantirish mumkin. Aks holda bu yoshdagi bolalar hali mustaqil tasavvur harakatlari kilishga qiynaladilar.

Psixolog Piaje tadqiqotlarida 6-7 yoshli bolalardan turli xil balandlikdagi idishlardagi suv miqdorini belgilash suralgan. Va bolalar suv miqdorini bir-biri bilan teng bo'lgan idishlarda ko'rganlaridan so'nggina o'z javoblari noto'g'riligni bilganlar. Kichik maktab davrida tasavvur asosan bolalar rasm chizishda, shuningdek ertak va hikoyalar to'qiyotganlarida rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar tasavvuri juda keng va xilma-xil bo'ladi. Ayrim o'quvchilar asosan real borlikni tasavvur etsalar boshqalari fantastik obraz va vaziyatlarni tasavvur etadilar. Shunga bog'liq kichik maktab yoshidagi bolalarni realistlar va fantazyorlarga ajratish mumkin. Bolalar ko'pincha o'zlariga ma'lum obrazlar, shyujetlardan foydalangan holda yangi obrazlarni tasavvur etadilar, yaratadilar. Bu tasavvurlar asosida ularning qo'rquvni yengish, do'st topish, xursandchilik hislari yotadi. Bundan tashqari tasavvur terapevtik natija olib keluvchi faoliyat sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Bola real hayotda qiyinchiliklarga duch kelib,

ulardan chiqib keta olmagan holatda ko'pincha xayolga beriladi. Masalan, mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bola o'zining hamma havas qiladigan oilasi, uyi bo'lishini, bu uyga o'g'rilar kelib qolsa, u qahramonlik qilishini tasavvur qiladi. Tasavvur bolani vaqtinchalik bo'shashiga va bu bo'shashish vaqtida ota-onasiz yashashini davom ettirish uchun kuch to'plashga imkoniyat yaratadi. O'z bolasiga doimiy baqiradigan asabiy ona o'z farzandining tasavvurida mehribon farishta, o'z onasini katta, qo'rqinchli xavfdan qutqarayotgan qaxramonlik yoki bolaga doimiy ravishda ozor berganligi uchun ham o'lib yotgan ona sifatida tasavvur etishi mumkin. O'z tasavvurida yaxshi yoki yomon holatlarni boshidan kechirgan bola o'zining kelgusi xatti-harakatlar motivatsiyasini tayyorlaydi. Kattalarga nisbatan tasavvurning bolalar hayotida ahamiyati juda katta. Bola tasavvur qilib atrof-hayotni chuqurroq bila boshlaydi, o'z-o'zining shaxsiy tajribasidan tasavvur yordamida chetga chiqa oladi, ijodiy layoqati rivojlanadi, shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bola maktab ta'limiga bog'chada tarbiyalanayotganida tayyorlanadi. Bunda u maktabda o'quvchilarga qo'yiladigan har xil talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o'rgatish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo'ladi.

Ta'limga psixologik tayyorgarlik deganda, bolaning ob'ektiv va sub'ektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi. U maktab ta'limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi. Binobarin, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokning o'tkirligi, ravshanligi, sofliqi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, dilkashligi, xayrixohligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, taffakkurining yaqqolliqi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Bola diqqatining xususiyatlari rolli va syujetli o'yinlarda, rasm chizish va qurish- yasash mashg'ulotlarida, loy hamda plastilindan o'yinchoqlar tayyorlashda, o'z-galar nutqini idrok qilish va tushunishda, matematik amallarni yechishda, hikoya tinglash va tuzishda ko'rinadi. Bola o'z diqqatini muayyan ob'ektga yo'naltirish va kerakli paytda to'plashga intiladi. Uning xotirasi qiziqarli, ajoyib-g'aroyib kishini taajjubga soladigan ma'lumot va hodisalarni

puxta esida olib qolish, esda saqlash, esga tushurish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'lsa, endi o'z xohish-irodasi bilan zarur ma'lumotlar to'plashga, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganligini bildiradi. U she'r, hikoya va ertaklarni esda qoldirish uchun ko'p takrorlashi, yod olishning qulay yo'l va usullaridan foydalanishi ta'lim jarayonida unga juda qo'l keladi. Birinchi sinf o'quvchisi ko'pincha yaqqol obrazli xotiraga suyanib bilish faoliyatini tashkil etsa ham, bu ish xotiraning boshqa turlarini inkor qilmaydi, aksincha, ta'lim so'z-mantiq xotirasini taqozo etadi. Ta'lim jarayonida o'quvchi oldida qo'yiladigan talablar tobora ko'payib va murakkablashib boraveradi.

O'qishning dastlabki kunidanoq kichik maktab yoshidagi bolaning o'sishini harakatga keltiradigan turli ziddiyat, qarama-qarshiliklar, ichki ixtiloflar vujudga keladi. Ana shular zamirida boladagi psixik kamolotning darajasi va ijobiy xislatlar bilan talablar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar yotadi. Talablarning tobora ortishi bolaning psixik jihatdan to'xtovsiz o'sishini taqozo etadi va zanjirning uzluksiz harakati natijasida insonning kamoloti amalga oshadi.

Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri unda o'ziga xos ehtiyojlar mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o'z mohiyati bilan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga, tevarak-atrofdagi voqelikni o'zlashtirishga qaratilmay, balki faqat o'quvchilik istagini aks ettirishdan iboratdir. Shu ehtiyojlar o'z portfeliga, dars tayyorlash burchagiga, kitob qo'yish javoniga ega bo'lish istagi, kattalardek har kuni maktabga qatnash tuyg'usi yotadi, xolos. Bundan tashqari, bilimlar kunidagi shodiyona ayyom, o'quvchilik safiga qabul vaqti, maktab ma'muriyati va o'qituvchilarning unga bildirgan samimiy tilaklari, yuqori sinf o'quvchilarining tabriklari bolaning his-tuyg'ulariga ijobiy ta'sir etadi. sinfdagi o'rtoqlari bilan qatorlashib saf tortib yurishlari, birgalashib o'ynash, oshxonaga borish, o'qituvchining o'g'itlari ham bolani o'ziga rom etadi. Umuman kichik maktab yoshidagi bola o'qishni tub mohiyati va vazifasini tushunib yetmaydi, balki hamma

maktabga borishi kerak deb tushinadi. Ammo u kattalarning ko'rsatmalariga amal qilib tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib ketadi.

Oradan ma'lum vaqt o'tgach shodiyona lahzalarning ta'siroti kamayishi bilan maktabning tashqi belgilari o'z ahamiyatini yo'qota boradi va o'qishning kundalik aqliy mehnat (irodaviy zo'r berish, yoqtirmagan narsa bilan shug'ullanish, diqqatni taqsimlash, o'z xulqini idora qilish) ekanligini anglaydi. Shunday aqliy mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmasa, uning o'qishdan ko'ngli soviydi, unda umidsizlik hissi vujudga keladi. O'qituvchi esa bunday holning oldini olish uchun bolaga ta'limning o'yindan farqi, qiziqarliligi haqida ma'lumotlar berishi va uni shu faoliyatga tayyorlashi kerak.

Kichik maktab yoshidagi bola o'qituvchisi bilan mustahkam emotsional bog'liq bo'ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'lsa, endi o'z xohish irodasi bilan zarur ma'lumotlar to'plashga, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayayn darajada rivojlanishini bildiradi. Oqilona tashkil qilingan ta'lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalarning tafakkurini jadal rivojlantiradi. Shu yoshdagi bola boshqa davrlarga qaraganda ko'proq narsani o'zlashtiradi. Maktab ta'limi o'quvchining turmush-tarzini ijtimoiy mavqeini sinf jamoasi va oila muhitidagi ahvolni o'zgartiradi, uning vazifasi o'qishdan, bilim olish, ko'nikma va malakalarini egallash, o'zlashtirishdan iborat bo'lib qoladi.

Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri unda o'ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o'z mohiyati bilan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilmay, balki faqat o'quvchilik istagini aks ettirishdan ham iboratdir. Shu ehtiyojlar asosida o'z portfeliga, shaxsiy o'quv qurollariga dars tayyorlash burchagiga, kitob qo'yish javoniga ega bo'lish, kattalardek har kuni maktabga borish istagi yotadi.

Kichik maktab yoshidagi bola o'zining tub mohiyati va vazifasini tushunib yetmaydi, balki hamma maktabga borishi kerak deb tushinadi. Ammo u kattalarning ko'rsatmalariga amal qilib tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib

ketadi. Oradan ma`lum vaqt o'tgach shodiyona lahzalarning taassuroti kamayishi bilan maktabning tashqi belgilari o'z ahamiyatini yo'qota boradi va bola o'qishni kundalik aqliy mehnat ekanligini anglaydi. Shunda bola aqliy mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmasa uning o'qishdan ko'ngli soviydi, unda umidsizlik hissi vujudga keladi. O'qituvchi esa bunday holning oldini olish uchun bolaga ta'limning uyindan farqi, qiziqarliligi haqida ma'lumotlar berishi va uni shu faoliyatga tayyorlashi kerak. Ta'limning mazmuni o'quvchining bilimlarni egallashga qiziqishi o'z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog'liqdir. Bu his o'qituvchining rag'batlantirish bilan amalga oshiriladi va o'quvchida samaraliroq ishlash moyili, istagi va ishtiyoqini shakllantiradi. Bolada paydo bo'lgan faxrlanish o'z kuchiga ishonish hislari bilimlarni o'zlashtirish va malakalarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarni o'qitish jarayoni o'quv faoliyatining asosiy komponentlari o'quv vaziyatlari, o'quv harakatlari, nazorat etish va baholash bilan (V.V.Davidov bo'yicha) tanishtirishdan boshlanadi. Bu borada barcha predmetli harakatlar aqliy rivojlantirishga qulay bo'lgan sharoitda amalga oshirilishi juda muhim. Agar bola o'quv harakatlarini noto'g'ri bajarsa bu uning o'quv harakatlarini yo nazorat va baholash bilan bog'liq harakatlarni bilmasligi yoki ularni yaxshi egallamaganligidan bo'lishi mumkin. Bolaning mustaqil ravishda bajarilgan harakatlar natijalarini o'z xatti - harakatlari xususiyatlari bilan taqqoslay olishlari unda o'z o'zini nazorat etish xususiyatlarini ma'lum darajada shakllanganidan dalolat beradi O'quv vaziyatlarida bolalar ayrim turdagi masalalarni yechish yullari bilan tanishadilar va ularni egallagan zahoti aniq bir masalalarni yechishda amaliy foydalanadilar. Pedagogik psixologiyaning asosiy talablarida boshlang'ich sinf ta'limri dasturlaridagi ko'pgina mavzu va bo'limlarni o'rgatish bolalarni ma'lum bir sinfga taalluqli namunalarini o'zlashtirishga yo'naltirish orqali tashkil etilishi kerak, deb ta'kidlanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, boshlangich sinf o'quvchilarining masalalarni yechishdagi ayrim yo'l va tushunchalarni yetarlicha egallamaganligi bu tushuncha va yo'llarni shakllantirishda bolalar barcha kerakli o'quv harakatlarini bajarishga o'rgatilmaganligi natijasidir. O'quv faoliyatida nazorat va o'z o'zini nazorat

etish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv harakatlarini mustaqil rejalashtirishi va bajarishni shakllanishida juda muhimdir. Bolalar taffakuri va nutqining rivojlanishida ovoz chiqarib mulohaza yuritishning va bu uslubdan o'quv jarayonida foydalanishning ahamiyati katta. Ovoz chiqarib mulohaza yuritish va o'z yechimini asoslab berish aqliy sifatlarni o'sishiga xizmat qilib, kishi o'z mulohazalari va xatti - harakatini tahlil etishi va anglashini rivojlantiradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar aqliy va o'quv materialini o'zlashtirish imkoniyatlari ancha yuqori hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan ta'limda bu yoshdagi bolalar o'rta maktablar dasturida ko'rsatilgan bilimlarga nisbatan ko'proq bilimlarni tushunishlari va o'zlashtirishlari mumkin. Kichik maktab yoshidagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki shu davrdan boshlab o'quv materialini o'zlashtirmaslikning dastlabki belgilari ko'zga tashlanadi. O'zlashtirmaslikning asosiy sabablari bu aqliy rivojlanganlik va o'quvchanlikning birmuncha orqada qolishidir. N.S.Leytes mulohazalariga ko'ra inson yoshi kattalashgan sari aqliy rivojlanish darajasi birmuncha ko'tariladi, o'quvchanlik esa birmuncha pasayadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning o'quvchanligi albatta o'smir va o'spirinlarga nisbatan yuqori, lekin o'smir va o'spirinlarning aqliy rivojlanganligi boshlangich sinf o'quvchilariga nisbatan yuqoridir. O'qituvchining muomala va munosabat uslubi o'quvchining xatti harakatiga ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining dars jarayonida har bir o'quvchiga ta'sir ko'rsatishi uchun imkoniyati bor. O'quv faoliyatining boshlanishi jarayonida bolaning kattalar va tengdoshlari bilan qiladigan muomala munosabatlari yangicha tus ola boshlaydi. "Bola-katta" munosabati "bola-ota-ona" munosabatidan tashqarida yuzaga keladi. Chunki, o'qituvchi bolaga ota-onaga nisbatan ko'proq ravishda normativ talablar qo'yadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola hali o'zini to'liq anglashi va o'zi xatti harakatlarini aniq bilishi qiyin. Faqat o'qituvchigina bolaga normativ talablar qo'yishi, ularning xatti harakatlarini baholash mumkin. O'z xatti - harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi shartlarni qabul qiladilar va ularning qoidalariga to'la amal qilishga harakat

qiladilar. Bola uchun o'qituvchi uning psixologik holatini belgilab beruvchi asosiy figura hisoblanib, bu holat uning nafaqat sinfdagi balki, umuman tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatiga bu munosabat esa o'z-o'zidan oilasidagi munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bu munosabatlar uning o'quv faoliyati muvaffaqiyatini ham belgilab beradi. O'qituvchining o'quvchilariga ta'sir ko'rsatishi va munosabatining quyidagi uslublari mavjud. Imperativ (avtoritar) uslub bu qattiqqo'llik bo'lib, bunda o'qituvchi o'quvchilarini so'zsiz o'ziga buysinishlarini talab etadi. Lekin nima uchun qattiqqo'llik qilayotganini yoki o'quvchilariga nima uchun o'zlarini shunday tutishlari lozimligini tushuntirib bermaydi, shuningdek o'quvchilarini o'z xatti - harakatlarini mustaqil boshqarishga ham o'rgatmaydi. O'qituvchi dars davomida o'quvchilaridan jim o'tirishini, savollarga doimo qo'l ko'tarib o'qituvchining ruxsati bilan javob berishni, o'qituvchining ko'rsatmalarini so'zsiz bajarishini talab etadi.

Bunday pedagoglar o'quvchilarning qiziqishlari asosida emas, balki asosan o'quv rejasi asosida dars o'tadilar. Dars davomida ham bahs - munozara uchun deyarli imkoniyat yaratilmagan holda asosan o'qituvchining fikri singdiriladi. O'quvchilari bilan muomala munosabatda ham ularning individual psixologik xususiyatlari, jumladan, nerv sistemasining qo'zg'aluvchanlik darajasini ham ehtiborga olmaydilar. Bu uslub o'qituvchini sinfdan, o'quvchidan o'zoqlashtiradi. Emotsional sovuqlik sinfda intizomni lekin o'quvchida yakkalanish, xavotirlik, himoya qilinmaganlik hissini ham yuzaga keltiradi. Bu uslub sinfda yuqori o'zlashtirish ko'rsatgichini berishi, lekin bu o'zlashtirish asosan faqat xotira evaziga bo'lib, lekin mustaqil tafakkur, ijodkorlik, hozirjavoblik kabi xususiyatlarni rivojlanishdan orqada qolishiga sabab bo'ladi, unda doimiy xavotirlik o'ziga nisbatan ishonchsizlini keltirib chiqaradi.

Ma'lumki, olti – yetti yosh davrlari orasidagi qandaydir chegara chizig'i bo'lib, bu yoshdagi bolada ixtiyorsiz xatti – harakatlar ustun turadi hamda yoshi orta borishi bilan ixtiyoriy xatti – harakat elementlari orta boradi. Bunda ixtiyorsiz xatti – harakatlarning ustun turishi asosan emotsiya bilan, “Men bunaqa bo'lishini xohlamayman” degan istakni bevosita ifodalash bilan bog'liq bo'lsa, keyinchalik

yoshi orta borishi bilan esa bunday xatti – harakatlar “shunday qilishim kerak” deganongli maqsad bilan tartibga solinib turadi. Olti yoshli bolaning diqqat, idrok, xotira, tafakkur, hayol kabi psixik protsesslari faoliyatida ro`y beradigan o`zgarishlar ana shunday yangi psixik hosilalarning paydo bo`lishiga va mustahkamlana borishiga olib keladi. Bu yangi hosilalar esa bola hayotini sifat jihatdan bir formasidan boshqa formasiga, asosan ixtiyorsiz xatti – harakat qilishdan ixtiyoriy xatti – harakat qilishga sakrab o`tishni ta`minlaydi. Bu sakrab o`tish bir zumda, darrov ro`y bermaydi, albatta. Aslida unga tayyorgarlik maktabgacha tarbiya yosh davrida o`tishi kerak. Ma`lumki, bola psixikasining rivojlanishida, shaxsning shakllanishida faoliyat muhim rol o`ynaydi. Maktabgacha tarbiya davrining yetakchi faoliyati o`yin hisoblanadi. Olti yoshda u maksimal taraqqiy etib, bir qator formalarga ega bo`ladi. Bular ichida syujetli – rolli va qoidali o`yinlar alohida ajratib turadi. Qoidalarni qabul etish va ularga amal qilish, rollarni qabul qilib ularni izchil amalga oshirib borish boladan o`z xatti – harakatli va xulq – atvorini ongli boshqarishi talab qiladi. Bola rolni bajarish jarayonida bevosita o`yinning o`zidan kelib chiqadigan, situativ istaklar va mayllar bilan to`qnashadigan vaziyatga tushib qolishi mumkin. Bunday holat boladan motivlarni bir – biriga qovushtiruvchi mexanizm bo`lmish iroda kuchini talab qiladi. Aynan mana shunday vaziyatlarda inson axloqiy qiyofasining negizida tarkib topadi. Axloqiy qiyofasining qanday turi tarkib topishi bu yoshdagi bolada ustun turgan motivlarga bog`liq bo`ladi. Zotan o`yinda ixtiyoriy xatti – harakat elementlari tarkib topar ekan, bular ixtiyorsiz xatti – harakat va xulq – atvor formasi hisoblanadi. Chunki o`yin faoliyatining erkin turi bo`lib, unda ishtirok etish faqat bolani xohishga qarab aniqlanadi. Rolli o`yinlar bolalarga katta quvonch va zavq baxsh etadi. Lekin bu quvonch va zavq qayg`urish, tashvishlanish hissi esa bolaning o`z xatti – harakatida qiziqarli, sevimli obrazlarni mujassamlashtirishga urinishi bilan bog`liqdir. Agar bunda bola bevosita o`ynayotgan rolga aloqador bo`lmagan istaklarini yengsa, bu holat uning o`yindan olayotgan quvonchiga yanada quvonch qo`shadi. Shuning uchun bolaning o`yinda emotsional rolni bajarishi shu rol o`zida mujassamlashtirilgan xatti – harakatlarni bajarishga

rag`batlantiruvchi ta`sir etadi. Bola bajarayotgan rol qanchalik qiziqarli bo`lsa, uni amalga oshirish ustidan nazorati shunchalik kuchlik bo`ladi. O`yinning bola ehtiyojiga bevosita javob berishi unda muhim psixologik yangi hosila vujudga keltiradi. Keyinchalik bu hosilalar faoliyatining boshqa turlariga ham o`z ta`sirini ko`rsata boshlaydi. Shuni ham aytish kerakki, bola hayotiga bevosita kattalar olib kirgan narsa o`yin jarayonida taraqqiy etib, mustahkamlanib boradi. Chunonchi, sovet psixologi A.B.Zaporojetsning ta`kidlashicha bola olti yoshga kirganida uning o`yining paydo bo`ladigan, lekin amaliy ish – harakatlar rejasiga bevosita mos kelmaydigan ayrim fikriy mulohazalarida qator sifat o`zgarishlari ro`y beradi, ya`ni bolaning xayoli rivojlanadi, o`zi bajarayotgan rolni boshqa bilan almashish, o`yinda boshqa bolalar bajarayotgan rollarni hisobga olish, boshqalarning fikriga qo`shilish kabi xususiyatlar paydo bo`ladi.

Syujetli – rolli o`yinlar olti yoshli bolalar uchun ijtimoiy tajribani o`zlashtirish maktabi bo`lib qoladi. Bunda bolalar insoniy o`zaro munosabatlarning xarakterini o`zlashtirib o`zaro munosabatlarning xarakterini o`zlashtirib o`zaro munosabatlarni o`rnatish tajribasini egallaydi. Katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar aynan o`yinda katta kishilarning huquqlari va burch – vazifalari bilan tanishadilar o`yinda shakllanib boradi va faoliyatning boshqa turlariga ham o`tadi. Bolaning xayoli chizgan rasmlari, o`zi ijod qilgan she`r va ertaklarida ancha yaqqolroq ko`rinadi.

Sovet psixologi V.S.Muxina bolalarni chizgan rasmlarining mazmuni yo`nalishiga qarab shartli tarzda realistlar va fantastlarga ajratadi. Realist bolalar tabiatda ko`rgan narsa va hodisalarni, kishilarning kundalik hayotidagi real voqealarni tasvirlashga intiladilar. Fantast bolalar esa o`zlarining istaklari, orzulari va hayollarini tasvirlaydilar. Bundan tashqari, ertaklardagi fantastik, qo`rqituvchi va jozibali olam bu yoshdagi bolalarning qiziqish ob`yektlari bo`lishi mumkin. Yalmog`iz kampir, suv parisi, afsonaviy shaxzoda va boshqa xalq ijodining ko`pincha personajlari real borliqdagi kishilar bilan bir qatorda bola ruhiy olami mazmuni va faoliyatlari mahsulotida o`z aksini topadi. Agar olti yoshli bolaning nutqi va xayoli yaxshi rivojlangan bo`lsa, qiziqarli mazmunni ijod qilib so`zlab

bera oladi. Hayol va bola hayotida kattalarga nisbatan muhim rol o'ynaydi. Bola hayolan yaratgan narsasida, hayotiy reallikni aks ettirganida ko'proq xatoga yo'l qo'yadi. Psixolog V.S.Muxina o'z asarlaridan birida mana bunday bir misolni keltiradi. Ilyusha degan bola bir yil davomida o'z ortida hayolan Lanka degan kuchukchani yetaklab olib yuradi va unga ovqat, turli – tuman komandalar beradi, sayrga olib chiqadi, uydagilar uning kuchugu oyog'i yoki dumini bosib olmaslari uchun g'amxo'rlik qiladi. Buvasi bilmay kuchugining oyog'ini bosib olganida birdan u yig'lab yuboradi. Ilyushaning bunday psixik holatini ko'rgan ota – onasi juda tashvishlanadilar. Ammo Lanka dab – durustdan Ilyushaning e'tibor predmeti bo'lmay qoladi. U o'z e'tiborini o'qishga jalb etadi va kuchukcha o'tmishda qolib ketadi.

Kuzatishlardan olingan ma'lumotlarning ko'rsatishicha, olti yoshli bola o'zining o'tmishini eslay oladi, hozirgi paytni va o'zini kelajakda qanday loyihalashtiradi. Bolaning o'tmishi unga turli – tuman xotiralar birga yana uning qandaydir holatini tasavvur ettiradi va bola “men kichkina bo'lgan paytimda” deb gapiradi. Bu bolaning o'zini kichkina bo'lganini psixologik takroran his etishidir. Bu yoshda bola kelajakdagi o'zini ko'rishga intiladi. Bolaning “men katta bo'lganimda...” deb aytadigan iboralari ana shundan dalolat beradi. Kelajakdagi o'zi haqida bola sira aqlga to'g'ri kelmaydigan, ishonib bo'lmaydigan orzu – umidlar haqida ishonch bilan fikr yuritadi. O'g'il bola bir vaqtning o'zida kosmonavt, ovchi va shofyor bo'lmoqchi bo'ladi. Qiz bola esa raqqosa, vrach va kosmonavt bo'lishni istaydi. Umuman bolaning o'tmishi, hozirgi payti va kelajagi haqida o'ylab fikr yuritishi unga o'tmishdagi va hozirgi paytdagi o'zligini anglashga va kelajakdagi o'zligini tasavvur etishga imkon beradi.

Har bir pedagog va tarbiyachi bolaning individual xususiyatlarini doimo qo'llab – quvvatlab turishlari zarur. Bunda uning qiziqishlari faqat ertangi kungagina emas, balki kelgusi katta hayotga ham yo'llab borish kerak.

Amaliyotdan ma'lumki, kishi xatti – harakat va odob normalarini bilgani bilan xulq – atvor o'z – o'zidan paydo bo'lavermaydi. Bolani tarbiyalash protsessida unda axloq – odob normalariga nisbatan emotsional munosabatda

bo`lish odati hosil qilinadi. Kundalik hayotida bola kattalarning, tengqurlari va o`smirlarning namoyon qiladigan turli – tuman xatti – harakatlar shohidi bo`ladi. Shuning uchun ham bolada bezorilik, beodoblik kabi illatlarga nisbatan salbiy munosabatni tarbiyalab borish zarur.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari shaxsini to`g`ri shakllantirish uning xulq – atvori motivlaridan xabardor bo`lishi talab etadi. Odatda ish – harakatga, faoliyatga undaydigan narsalar motiv deb ataladi. Bolaning ehtiyojlari, qiziqishlari, havas va emotsiyalari esa ana shunday motivlar bo`lishi mumkin. Bolalar kattalar faoliyati haqida tasavvurga ega bo`ladilar, ularning fikricha, kattalar kuchli, aqlli va hamma narsani qila oladilar. Bolalarning ko`pgina ish – harakati kattalarga bo`lgan munosabati bilan bog`liqdir. O`smirlar olti yoshli bolalarda alohida munosabat uyg`otadilar. Boshlang`ich sinf o`quvchilari ularning chaqqonligi, qo`rqmasligi va mustaqilligiga qoyil qoladilar.

Zotan kattalar va boshqa bolalar bilan ijobiy o`zaro munosabat o`rnatish va shu munosabatlarni saqlash motivlari bola shaxsining rivojlanishida katta ahamiyatga ega ekan, bunda tevarak – atrofdagilarning bolaga yaxshi munosabatda bo`lishi ayniqsa zarurdir. Ma`lumki ijobiy emotsiyalarga bo`lgan ehtiyoj dastlabki insoniy ehtiyoj hisoblanadi. Shuning uchun kattalarning ma`qullashicha, erkalashiga, muloyim gapirishiga va bolalarni yoqtirishiga sazovor bo`lish istagi bola xatti – harakatining asosiy motivlaridan biri hisoblanadi. Kattalar bilan ijobiy o`zaro munosabatda bo`lish isnatijasida bola kattalarning fikri va unga bergan baholari bilan hisoblasha boshlaydi, ularning talab qilayotgan xulq – atvori harakterini aniqlab beradi. Agar olti yoshli bola o`zi ko`nikib qolgan va do`stona munosabatlar o`rnata olgan bolalar muhitida bo`lsa, u o`z fikr – mulohazaralari va ish – harakatlarida mustaqillik namoyon qila oladi. Olti yoshli bola tanish tengqurlari bilan o`zaro munosabatlar jarayonida (mabodo tengqurlari uning xulq – atvor normalari haqidagi bilimlariga qarama – qarshi bo`lgan narsani aytishni va bajarishni taklif qilsalar) ularga qarshi tura oladi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari katta kishilar va katta bolalarga namuna sifatida yondoshish bilan bir vaqtda o`zini ham ular tan olishlarini da`vo qiladi. U

ana shu istagi tufayli xulq – atvor normalarini bajaradi, o`zini to`g`ri olib yurishga harakat qiladi, bilim egallashga intiladi. Mabodo kattalar olti yoshli bolaning xususiyatidan foydalanib, uni hayotimiz normalariga zid bo`lgan lekin o`zlari kutayotgan narsani bajarishga yo`llasalar, unda bola hatto xulq – atvor qoidasini bilib turib, o`zi yomon deb baholaydigan narsasini qilishi mumkin. Mabodo bola taklif etilgan narsani bajara olmasa yoki bajarishga qiynalsa, unday o`zini – o`zligini ko`rsatishga bo`lgan intilishi unda to`xtab bo`lmaydigan injiqlikning paydo bo`lishiga sabab bo`lishi mumkin. Kattalarning bolaga nisbatan noto`g`ri munosabati, befarq va e`tiborsizligi unda qaysarlikni keltirib chiqaradi. O`jarlik, qaysarlik bu o`z erkini asossiz namoyon qilishdir. U bolada ko`pincha o`ziga e`tiborni qaratish vositasi sifatida namoyon bo`ladi.

O`zligini ko`rsatishga bo`lgan intilish tengqurlari bilan o`zaro munosabatlarda va o`yinlarda ham namoyon bo`ladi. O`yinda bola bosh yoki qiziqarliroq rolni olishga intiladi. Boshlang`ich sinf o`quvchilari tengqurlarining namoyon qilishi mumkin bo`lgan xulq – atvor va xatti – harakatini his eta va tushuna oladi. Shuning uchun ham agar bosh rolni olishga talabgor bo`lganlar orasida kuchlirog`i bo`lsa, unda boshqa bolalar o`zlarining da`volarini yashiradilar. Umuman, kattalar va tengqurlari bilan ijobiy munosabat o`rnatish motivi hamda o`zligini ko`rsatishni va o`zini tan oldirishni da`vo qilish motivlari musobaqa motivlari negizida yotadi. Boshlang`ich sinf o`quvchilari o`zlari erishayotgan yutuqlarni bir – birlari bilan taqqoslaydilar. “Kim chaqqonroq?”, “Kim tezroq bajaradi?”, “Kim birinchi bo`ladi?” va hokazolar esa olti yoshli bolalarning ana shunday xususiyatlaridan dalolat beradi. Musobaqa motivlari bolada kuchli emotsional kechinmalarni vujudga keltiradi. Bunda bola xatoga yo`l qo`ysa va muvaffaqiyatsizlikka uchrasa xafa bo`ladi, yig`laydi. Musobaqa motivlari bolani o`z qobiliyatlari va malakalarini takomillashtirishga ruhlantiradi va unda hayajonlanish, tashvishlanish kabi kechinmalarni vujudga keltiradi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari o`zlari intilayotgan narsaga erishishga harakat qiladilar va lozim bo`lganda o`zlarini bu harakatdan to`xtata biladilar.

Aslida motivlarni bo`ysundira bilish bola shaxsi tarqqiyotida paydo bo`lgan eng muhim yangi hosila hisoblanadi. Besh yoshli bola ongida motivlar iyerarxiyasi paydo bo`ladi. U ayni shu chog`dagi xulqi, xatti – harakati o`rniga boshqa qanday xatti – harakat qila olishi mumkinligini tushunadi va u haqida to`g`ri fikr yurita oladi. Bola bir motivni ikkinchi bir motivga bo`ysundirishni, to`g`ri ish – harakat qilish uchun o`zining sho`xligini yoki g`arazlarini bosib tura bilishni o`rganganidan keyin, u hamma holatlarda ham faqat yaxshi motivlarga amal qilishi shart. Lekin bunday holat kattalarda ham bo`lmaydi. Har qanday inson xulq – atvori va xatti – harakatlarida doimo namoyon bo`lavermaydigan ko`pgina turli – tuman motivlar mavjud bo`lishi mumkin. Lekin shaxslararo muomalada namoyon bo`ladigan kishilardagi bir – biriga bo`ysuna bilish hislati shu narsaga olib keladiki, oqibatda hamma motivlar bir sistemaga tuziladi va yetakchi asosiy motiv boshqa u bilan bir maqsadga muvofiq holda mashg`ulot olib borishga yordam beradi. Metodikalar to`plami maktabdagi ma`lum bir tarbiyaviy ishlarning samaradorligini to`g`ri baholash imkonini berish bilan birga olti – yetti yoshdan o`n – on bir yoshgacha bo`lgan bolalarni o`rganishda qo`llash mumkin bo`lgan usullarni ham o`z ichiga oladi. Bu usullar yordamida olingan baholar bitta yagona standart tizimga o`tkaziladi va kichik maktab yoshidagi maktab o`qituvchisining psixologik rivojlanishi individual haritasiga yoziladi.

2- BOB. Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishning psixologik mexanizmlari

2.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishi uchun qo'llaniladigan shart –sharoitlar

Bolaning turmush haqidagi tushunchalar boyligiga: o'zi, yaqinlari, qarindoshlari, atrofdagilari, u yashayotgan hududdagi kishilar, buyumlar haqidagi tushuncha va bilimlar kiradi. Bunday bilimlar bolaning yoshi oshgan sari ortib boradi. Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobi boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishning psixologik mexanizmlari deb nomlanib, ushbu bobda boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya jarayoni va uning samaradorligini oshirishning psixologik mexanizmlari emperik jihatdan o'rganilgan, psixologik tavsif berilgan. Tadqiqot Navoiy shahridagi 2-sonli umumta'lim muassasasi 3 A– sinf o'quvchilari va maktab psixologi Ochilova Munira yordamida amalga oshirildi. Tadqiqotda 40 nafar (22 nafar o'g'il bola, 18 nafar qiz bola) o'quvchi hamda maktab psixologi Ochilova Muniraning faoliyati o'rganildi. Tadqiqotda kuzatish, tajriba sinov, bolalarning o'qish faoliyatini tahlil va talqin qilish, suhbat, proyektiv-rasmi metodlaridan foydalanildi.

Turmush haqidagi tushunchalar boyligini tadqiq etish uchun 6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha bolalarga beriladigan savollar o'ntadan oshmasligi kerak. Har bir yosh uchun savollar ma'no jihatdan bir xil bo'lsa ham, lekin asta – sekin murakkablashib boradi. Masalan: maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaga “Isming nima?” deb savol bersak, 1-sinf o'quvchisiga bu savol biroz boshqacha beriladi: “Isming va familiyang nima?”, 2-sinf: “Ota – onangni ismi va familiyasi qanday?”, 3-sinf: “Buving va buvangni familiyasi va ismi qanday?” tarzida o'zgarib boradi.

Shu tarzda, o'yin faoliyatidan o'quv faoliyatiga o'tish ro'y beradi. Bu olti yoshli bola o'z psixik taraqqiyoti borasida bosib o'tadigan asosiy yo'ldir. Odatda bir faoliyat turidan ikkinchisiga juda sekin – asta ro'y beradi. Bu olti yoshli bola o'z psixik taraqqiyoti borasida bosib o'tadigan asosiy yo'ldir. Odatda bir faoliyat

turidan ikkinchisiga juda sokin – asta roʻy beradi, ular oʻrtasida aniq chegara boʻlmaydi. Bu haqida V.A.Suxomlinskiy: “Oʻqishni, mehnatni oʻyinga aylantirib yuborish yaramaydi...”, - deb ming marta aytilgan. Lekin mehnat bilan oʻyin orasiga xitoy devorini qoʻyish yaramaydi. Oʻyinda bolalar oldida olam ochiladi, shaxsning ijodiy qobiliyatlari namoyon boʻladi. Oʻyinsiz toʻliq aqliy taraqqiyot boʻlmaydi va boʻlishi ham mumkin emas. Bola oʻynagan holda yozishni oʻrganadi, deyishga qanaqa qoʻrqinchli narsa bor, intellektual taraqqiyotning qandaydir bir bosqichida oʻyin mehnat bilan birga qoʻshib olib boriladi va oʻqituvchi kamdan – kam bolalarga: “Qani, oʻynab boʻldinglarmi, endi esa mehnat qilamiz”, degan edi.

Sabotlilik, quntlilik, diqqat – eʼtabor bilan qarash, sabr – toqatlilik, bardoshlilik, ishga nisbatan javobgarlikni his qilgan holda munosabatda boʻlish kabi axloqiy – irodaviy sifatlar, ish rejasini va uni amalda bajarish jarayonini har tomonlama oʻylab olish malakasi, rejadagi natijani olish borasida uchraydigan qiyinchilikni yengish va, nihoyat, mehnatsevarlik kabi fazilatlar aynan mehnat faoliyatida (bola kuchiga mos) tarkib topadi. Bu sifatlarni yetarli meʼyorda taraqqiy ettirmay turib, bolalarni maktabda samarali oʻqitib boʻlmaydi. Eng asosiysi shundaki, bola maʼlum harakat qilishni, kuch sarflashni talab qiladigan ishdek tasavvur eta oladi. Mehnat qilishga boʻlgan ehtiyojni tarbiyalash masalasiga V.A.Suxomlinskiy maktabgacha tarbiya pedagogikasining muhim vazifalaridan biri sifatida qaraydi. V.A.Suxomlinskiyning fikricha, faqat kishilarga foyda keltirish istagi kabi oliyjanob maqsad bilan ruhlantirilgan mehnatgina tarbiyaviy taʼsir etishi mumkin.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida mantiqiy operatsiyalar hali, odatda, oʻyindan tashqarida roʻy bera olmaydi, chunki bu yoshdagi bolalar kuchli emotsional “Qoʻllab – qoʻvvatlab turish”ga muhtoj boʻladilar. Buni sovet psixologi L.S.Slavinaning tadqiqotlarda koʻrish mumkin. Ushbu tadqiqotlarda qoʻshish va ayirishga moʻljallangan oddiy misollar bolaga avval oʻyinsiz vaziyatda, keyin esa oʻyin formasida tavsiya qilinadi. Eksperimentatorning bayon qilishicha, bola avval yecha olmagan topshiriqlarni oʻyin vaziyatida muvaffaqiyatli yechadilar. Bunda ular oʻyinsiz vaziyatda also qoʻllanmagan usullardan foydalanadilar. Bolalarning

faoliyatiga nisbatan boʻlgan munosabati ham oʻzgaradi. Bolalar vazifani oʻyinsiz vaziyatda bajarayotganlarida bu faoliyatga befarq qarayotganliklarini ochiq – oydin namoyon qiladilar, baʼzi bolalar hatto mashgʻulotni toʻxtatish istagini bildiradilar. Oʻyin vaziyatida esa ularning xulq – atvori va xatti – harakatlari keskin oʻzgaradi. Qizigʻi shundaki, ular masalalarni yechish jarayonidan ham, shuningdek, yechgan (gʻolib chiqqan) paytlarida ham quvonib ketadilar, tez fikr yuritadilar, aktiv, sabr – toqatli, oʻta qiziquvchan boʻlib, oʻyinni toʻxtatmay davom ettirishga intiladilar.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari oʻz xatti – harakatining xususiyatlarini anglay boshlaydi, unga oʻzi baho beradi, kattalar va tengdoshlari bergan bahoga eʼtibor bilan qaraydi. Kattalarning vazifasi bolani oʻziga toʻgʻri baho bera bilishiga oʻrgatadi. Chunki bu fazilat bolaning keyinchalik maktabda qolishida, shaxsining bundan keyin shakllana borishida juda muhim rol oʻynaydi. Mustaqil, birgalikda oʻynaydigan oʻyinlar faoliyatida esa bolalarda “Ijtimoiy fikrlar” hosil boʻladi. Mana shuning asosida bolalarda shaxsiy axloqiy tasavvur va kattalarning beradigan bahosi tajribasidan foydalanish hislati paydo boʻladi. Bunda bola tengdoshlari orasidan taqlid qilish va oʻzining fazilatlarini taqqoslab koʻrish uchun namunalar tanlay boshlaydi.

Shu tariqa bola hayotining yettinchi yili davomida motivlari va iroda sifatida koʻpgina oʻzgarishlar sodir boʻladi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida ixtiyoriy xatti – harakatlarning ortib borayotganligi idrok, diqqat, xotira, hayol kabi psixik protseslarda ham namoyon boʻla boshlaydi. Bu esa oʻz navbatida bolaning bilish faoliyatiga katta taʼsir koʻrsatadi. Shunday boʻlsa-da, bolalarning mashgʻulotlarda va sayrlarda jonli va jonsiz tabiatdagi buyum va hodisalarni maqsadga yoʻnaltirilgan tarzda yetarli meʼyorda uzoqroq vaqt kuzata olish qobiliyati hali uncha rivojlanmagan boʻladi. Mashgʻulotlarda bogʻchaning maktabga tayyorlov gruppasi bolalari pedagogning tushuntirishini diqqat bilan tinglashi, rasmlarni diqqat bilan tomosha qilishi, hatto uncha qiziq boʻlmagan oquv materialini ham tinglashi mumkin. Bolalar turli xil axborotlarni oddiy mnemonik usullarni (materialni maʼnosiga qarab gruppalashtirish, predmetli va grafik koʻrinishidagi

shakllaridan foydalanish) qoʻllagan holda esda olib qoladilar, oʻz xatti – harakatlarini maʼlum vazifaga boʻysundira biladilar.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida predmetlarning parametrini (uzunligi, kengligi, balandligi, qalinligi) aniqlay bilish, ularning absolyut va nisbiy katta – kichikligini (oʻlchov), ularning hajmini, ogʻirligi proporsiyasini toʻgʻri baholay bilish, fazo va vaqtni oriyentirofka qila bilish, rasmlardagi prepektiva munosabatlarini koʻra bilish kabi qobiliyatlar shakllanadi, ularning eshitish idroki, avvalo fonematik oʻquvi takomillashadi. Bolalar ona tilining barcha tovushlarini yaxshi farqlay biladilar, ularni soʻzlarda toʻgʻri ajrata oladilar, ohangni ifodali qilib beradigan vositalardan foydalanib, nutq ovozi va tempini oʻzlashtirgan holda xatosiz talaffuz qila oladilar. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari besh yoshli bolalarga nisbatan old qushimchalari va kelishik qushimchalarini qoʻllashga kam xatoga yoʻl qoʻyadilar. Ularning soʻz zapasi bayroq boʻlib, savollarga toʻliq javob beradilar, rasimga qarab hikoya tuzza oladilar, ertaklarni mazmunli va bir – biriga bogʻlashgan holda qayta soʻzlab bera oladilar.

Bu yoshda muzika eshitish va ritm hissi ham rivojlana boradi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari ashulani, bolalar musiqa asbobida ijro etilgan kuylarni idrok qila oldilar. Bu yoshdagi bolalarda rasm chizish, loydan qurish – yasash kabi ijodiy qobiliyatlar taraqqiy qilib boradi. Bolalar faoliyatining bu turlariga toʻgʻri rahbarlik qilinsa, idrok va obrazli tafakkurning yuksakroq qormalari tarkib topa boshlaydi. Bu keyingi taraqqiyot bosqichida umumlashgan bilimlarni oʻzlashtirish uchun zarur asosni vujudga kelishga yordam beradi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining aqliy faoliyati imkoniyatlari sezilarli darajada ortadi. Tafakkur operatsiyalarining umumlashganligi va izchiligi ancha oʻsish roʻy beradi. Olti yoshli bolalar tevarak – atrofdagi borliq hodisalarning muhim xususiyatlarini ajrata biladilar, bu hodisalarni bir – biri bilan taqqoslay, oʻxshash va farq qiladigan belgilarni topa biladilar.

Katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda koʻrgazmali amaliy tafakkur bilan birqatorda obrazli tafakkur ham rivojlana boradi. Biroq negizida obʻyekt yoki hodisaga nisbatan mantiqiy yondashishning u yoki bu formasi yotgan bilish

faoliyatining usullari maktabgacha tarbiya yoshining oxirlarida shakllana boshlaydi. Mantiqiy operatsiyalar esa bolaning amaliy ish harakatlari natijasida paydo qiladi. A.M.Lexshina konkret syujetli narsadan syujetsiz narsaga, ko'rgazmalilikning moddiy turlaridan shartli jadvallar, modellar, sxemalar va hokazo materialga tomon o'tish maktabgacha tarbiya yoshida ko'rgazmali materiallarni qo'llash va ularni murakkablashtirib borishning negizida yotishi lozimligini ta'kidlagan edi. Bunda aqliy ish – harakatlarni o'zlashtirish deduktiv printsip asosida sodir bo'lishi ham mumkin, ya'ni avval printsip, ish-harakat mohiyati va uning sxemasi yoki modeli o'zlashtiriladi, keyin uning amalda qo'llanilishi konkret bajariladigan operatsiyalarda bo'ladi. Nazariy tafakurning dastlabki shakllanishini ta'minlaydigan buy o'llardan samarali foydalanish katta maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'limni bundan keyin takomillashtira borishning ko'pgina imkoniyatlarini o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, bola olti yoshga kirganida uning psixik olamida anchagina qayta tuzilishlar sodir bo'ladi. Albatta, yosh psixologiyasi taraqqiyotning hozirgi bosqichida ko'p narsa hali yetarlicha o'rganilmaganicha qolayotir. Ayniqsa, bu bolaning, axloqiy – emotsional sohasining o'zgarishini, o'rganishini o'rganishga, uning bilish protseslari bilan, shaxsiy sifatlarining tarkib topishi bilan o'zaro munosabatni o'rganishga taalluqlidir. Shunday bo'lsa-da, hozircha mavjud bo'lgan ma'lumotlar mana shu yoshdagi bolalarga tarbiya va ta'lim berish metodlarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatayotir.

Yuqorida bayon qilingan fikrlardan boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik va psixik imkoniyatlari kattaroq yoshdagi bolalarning shunga o'xshash sifatlaridan kam farq qilar ekan-da, degan fikr hosil bo'lishi mumkin. Lekin bu aslida shunday emas. Yangi bilimlar va malakalarini o'zlashtirish olti yoshli boladan ko'p energiya sarflashni talab qiladi, lekin uning ishchanlik qobiliyati, ya'ni jismoniy ishchanligi ham, aqliy ishchanligi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ma'lum me'yorda cheklangan bo'ladi. Bular esa bola organizmining morfofunktsional taraqqiyot darajasi bilan, avvalo uni boshqarib turadigan mexanizmlarning taraqqiyot darajasi bilan shartlangandir. Shuning uchun olti

yoshli bolalar bilan o`quv – tarbiya ishlarini olib borishga ularning yosh somatik va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish bolalarni zamon talabiga javob beradigan tarzda kamol toptirih va maktab ta`limiga tayyorlash imkonini beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bola maktabgacha tarbiya yoshining oxirlariga kelganda o`zini ma`lum ma`noda shaxs sifatida tasavvur etadi, o`zining qaysi jipsga taalluqliligini yaxshi anglaydi, qaysi mamlakatda yashayotganini, uning uyi qaysi shahar, rayon va ko`chaga joylashganini biladi; yer yuzidagi boshqa mamlakatlar haqida qisqacha bo`lsa-da ba`zi tasavvurlarga ega bo`ladi. U kishilar o`rtasida qanday o`rinni egallagani (u maktabgacha tarbiya yoshidagi bola) va yaqin kelajakda u qanday o`rinni egallashi lozim bo`lishi (u o`qish uchun maktabga borishi) haqida o`ziga hisobot beradi. Umuman aytganda, u fazo va vaqt ichidagi o`z o`rnini topa oladi, oilaviy – qarindoshlik munosabatlariga amal qiladi, tug`ulganlari hamda yaqin kishilari o`rtasida sotsial statusiga mos o`rinni egallay biladi, u kattalar va tengqurlari bilan munosabat o`rnata biladi, o`zini bilish malakasiga ega bo`lib, o`zini mavjud sharoitga bo`ysundira biladi, o`z istaklarida mustahkam tura oladi.

Bu yoshdagi bola shaxsi taraqqiyotida erishilgan muhim yutuq sifatida ko`zga tashlanadigan narsa “men xohlamayman” motividan “men qilishim kerak” degan motivning ustun turishidir. Maktabgacha tarbiya yoshining oxirlariga kelganda maktabga o`qishga motivatsion tayyorlik alohida kasb etadi.

Maktabgacha tarbiya yosh davrida psixik taraqqiyotdagi muhim yakunlardan biri bolaning maktab ta`limiga psixologik tayyorligidir.

Olti yil davomida har bir bola faqat o`zigagina xos bo`lgan individual tajriba orttiradi. Har biri dunyo haqida o`ziga xos tasavvurga, o`ziga xos hayotiy malakalarga, boshqa kishilar bilan muloqotda bo`lishning alohida o`ziga xos usullariga ega bo`ladi. Har bir bola endi individual shaxsiy hislatlarga, motivlarga va hayotiy pozitsiyaga ega. Har bir kichkintoy shaxsida mujassamlashgan hamma hislat va fazilatlar faqat shu bolaning o`ziga xosdir. Har biri o`ziga xos individuallikka ega.

2.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash - sog'lom ma'naviyatning mezoni sifatida

Biz yuqorida tafakkurni individual xususiyatlari va ushbu jarayonga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni o'rgandik. Lekin aslida maqsad shundayki, har bir shaxs o'zidagi tafakkur va fikrlash jarayonlarining o'ziga xos tomonini bilgan holda uni o'stirish yo'llarini bilishi kerak. Oxirgi yillarda psixologlarning o'tkazgan tadqiqotlari va kuzatishlari shuni ko'rsatdiki, fikrlash jarayonlarini guruh sharoitida, dars paytida ham o'stirish va bunga qisqa yo'llar bilan erishish mumkin ekan. Ularning fikricha, guruhdagi hamkorlikdagi faoliyat idrok va xotiraning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, fikrlash jarayonini tezlashtiradi va faoliyatni samaraliroq qiladi. Ayrim juda jiddiy va murakkab ijod daqiqalarini inobatga olmaganida, yaxshi tashkil etilgan dars jarayoni, undagi faoliyat shakli individual tafakkurning ham rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu narsa isbot qilinganki, jamoada ishlash ko'plab nostandart fikrlarning tug'ilishi, ularning ichidan eng yaxshilarining saralanishi va yangidan yangi g'oyalarning paydo bo'lishiga sabab bo'larkan.

Ana shunday samara beruvchi metodikalardan biri «breynstorming» deb atalib, uning lug'aviy ma'nosi «miyani zabt etish»dir («mozgovaya ataka» ruscha - «brain storming» ingl.). Uni o'tkazish quyidagi tamoyillarga asoslangan:

Ba'zi intellektual masalalarni yechishda bitta yechim bilan cheklanib bo'lmaydi va shu maqsadda ijodiy fikrlovchilar guruhi tashkil etiladi va bu jarayonda «gruppaviy effekt» bo'lishi kutiladi. Guruh ishi tez va optimal qarorlar qabul qilishga qaratilgan bo'ladi va bunda alohida ayrim individual qarorlarga ta'sirlanishga yo'l qo'yilmaydi.

Guruhga shunday kimsalar kiritiladiki, ular bir-birlaridan fikrlash uslublarining noyobligi bilan farq qiladilar. Masalan, kimdadir mantiqiylik ustun, kimdir kreaktiv, kimdir tanqidchi va shunga o'xshash.

Guruhda shunday ijodiylik ruhi bo'lishi kerakki, har kim xoxlagan fikrini bemalol aytaveradi, u yoki bu fikr tanqid qilinishi mumkin, lekin uning egasi

tanqid qilinmaydi. Bunday sharoitda o'rtacha intellektual darajaga ega bo'lgan shaxs ham shunday fikrlar izxor qila boshlaydiki, ular alohida qolgan paytida sira ham miyaga kelmagan bo'lardi.

Bu jarayon oliy o'kuv yurtlarida darslarda ham qo'llanilishi mumkin, faqat uning yuqoridagi tamoyillari inobatga olinishi va guruhda o'zaro hamjihatlik muhiti bo'lishi kerak.

Shaxs o'z fikrini bayon etishi, boshqalarni tushunishida tafakkur muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun tafakkurning turlari: mantiqiy, nazariy, amaliy, konvergent, divergent, produktiv, reproduktiv, ko'rgazmali harakat, ko'rgazmali obrazlini bilish, tafakkur shakllari: tushuncha, hukm, xulosalarni bilish, tafakkur operatsiyalari: analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, mavhumlashtirishni bilish zarur. Mustaqil fikrlash – talaba-yoshlarda atrof-borliq to'g'risida xolis va ob'yektiv tasavvurlarning shakllanishi uchun psixologik shart-sharoit bo'lib, yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish va erkin fikrlashni tarbiyalash muhimdir.

Mamlakatimizda oliy va o'rta maxsus ta'lim muasssalarida ta'lim olayotgan yoshlarda turli yot g'oyalarga nisbatan immunitetni hosil qilish, ularda sog'lom g'oyalarga sobitlik psixologiyasini davlatlararo emas, balki ko'proq dinlararo, e'tiqodlararo, fikrlashlararo murosasizliklarning namoyon bo'layotganligi barchamizga ayon .

Bunday sharoitlarda yoshlarni to'g'ri yashashga, vatanparvar va insonparvar bo'lishga, erkin fikrli bo'lishga o'rgatish masalasi shakllanligiga bog'liqdir. Zero, o'rgatish bir tomonlama jarayon tarbiyalananuvchilarning bo'lmay, u “pedagog-tarbiyalananuvchi” muloqoti tizimida ko'proq tarbiyalananuvchining fazilatlariga bog'liq. Bunday murakkab ishni tashkil qilishda har bir ijtimoiy toifa yoki shahsning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olish zarurati ijtimoiy psixologiyada isbotlangan. Masalan, agar talabalarni yaxlit guruh deb oladigan bo'lsak, ularning barchasi bilan, bir vaqtda, bir xil effekt bilan ishlash va shu orqali ularning mustaqil tafakkurini o'stirishning ilojisi yo'q. ikkinchidan, bir

gurux talaba uchun maqbul va samarali deb hisoblangan uslubni boshqasida ham aynan joriy etishga urinish bunday sharoitlarda teskari samara berishi turgan gap.

Demak, bugun oliygoh ayditoriyasida ta'lim olayotgan, lekin ming afsuski, o'z mustaqil fikriga ega bo'lmaganligi uchun turli bid'atlarga ishonadigan, salbiy guruhlarga aralashib qolgan yigit va qizlar uchun psixoterapiya nimadan iborat bo'lishi kerak.

Birinchidan, xulq - atvordadi xatoliklar eng avvalo fikrlar tarzidagi xatoliklarning oqibati bo'lganligi uchun yoshlarning negative fikrlash tarzini sxemasini o'zgartirish lozim.

Ikkinchidan, fikrlash tarziga ta'sir ko'rsatish uchun pedagoglar va biz bo'lg'usi pedagog va psixologlar o'zimizning tushunish uslublarimizni, tarbiya metodlarimizni o'zgartirishimiz lozim. Ya'ni, ilgari, yuqori tonlarda direktiv ohangda, "katta roli" da talaba bilan muloqot qiladigan bo'lsak, "tengma-teng", demokratik ohangda, sekin – astalik bilan xatti-harakatlarni birgalikda tahlil etishda o'tish lozim.

Uchinchidan, talabaning o'z-o'zini idrok qilishini, o'ziga bo'lgan bahosini o'zgartirish, ya'ni, talabani ijobiy ishlarga yo'naltirish orqali o'ziga bo'lgan bahosini o'zgartirishga erishishi kerak.

Nihoyat, shunday vaziyat yaratish lozimki, talaba ijobiy tajriba orttirsin, ya'ni o'ziga, oilasiga yoki kursdoshlariga, fakultetiga manfaatli ish qilib, olqish olsin, ya'ni, talabalarni jamoat ishlariga keng jalb etish amaliyotini kengaytirish, bu ishdan man'faatdorligini oshirish lozim.

Demak, ta'lim va tarbiya jarayonida har bir pedagog talabalarning mustaqil fikrlashlari uchun sharoit yaratishi lozim, aks holda talaba ongi tayyor shablonlar, stereotiplarga shu qadar o'rganadiki, bular ohir-oqibat har qanday bid'at yoki yot g'oylarga ergashib ketaveradigan bo'lib qoladi. Ya'ni, darsni tashkil etishning noan'anaviy usullariga keng yo'l ochish darslarda talabalarning interaktiv muloqotini tashkil etish, ular miyasining yaxshi ishlashi, qiziqish va fikrlashiga yordam beradi.

Psixologik manbalardan yana shu narsa ma'lumki, talabalar mustaqil fikrlashlari uchun ta'lim jarayoninig o'zida joriy etilgan tartiblarda biyrokatiyaniminimallashtirilishiga erishish kerak. Chunki, eski ta'lim tizimi o'qituvchining aytganini, u yozganma'ruza matnini aynan ko'chirib yozib olish, aytib berishni talab qilardi. Bu holat miyani avtomatik holatda ishlashga, zombi kabi o'ziga xis vacuum hosil bo'ladiki, bu vakuumga keyinchalik boshqa yot g'oya va tushunchalar juda tez singadi, chunki miya deyarli tormozlangan, har qanday boshqacha xabar uning miyasiga oson kirib oladi.

Demak, davrimiz rahbardan, pedagogdan o'z ish uslublarini o'zgartirish, muloqpot qobiliyatlarini takomillashtirishni talab qilmoqda. Bu uning ta'sir ko'rsata olish xislatlarini samarali bo'lishioni talab qiladi. Bu esa bevosita yoshlarda mustaqil, erkin tafakkurni rivojlanishi uchun real zamin bo'ladi.

Barcha ta'lim tizimi pedagoglari yoshlarni turli yomon ta'sirlardan asrashda axloqiy qadriyatlardan foydalanishi va bunda axloqiy ta'sir ko'rsatish texnologiyasidan oqilona o'z faoliyatida joriy eta olishi lozim. Axloqiylikka o'rgatish, axloqan va ma'nan yuksak bo'lish, umuman tazyiqni, kuch ishlatishni rad etadi. Ma'muriy tazyiq yoshlarni yot ta'sirlardan asrab qololmaydi. Buning yagona yo'li – talaba yoshlar bilan munosabatda bo'lishda gumanistik tamoyillarni joriy etish, erkin fikr almashinishmyhitining yaratilishidir. Zero, mamlakatimizda qyriylayotganerkin fuqarilik jamiyatining asoschisi prezidentimiz Islom Karimov bu ezgu ishlarni amalga oshirishda hamihsa yoshlarga, ularning mustaqil fikrli, iqtidorlilariga ishonadilar.

Insoniyatning ko'p asrlik tarixi shundan dalolat beradiki, bu duyonda o'zining milliy davlatini qurishga azmu qaror qilgan har qaysi xalq yuksak vazifalarni amalga oshirish, shu yo'lda odamlarni birlashtirish va safarbar qilish, ularning qalbida ishonch uyg'otish, eski ijtimoiy tuzumdan mutlaqo yangi tuzumga o'tishda o'ziga qo'shimcha kuch-quvvat va madad topishda umumiy, yagona maqsad va orzu-intilish ifodasi bo'lgan milliy g'oyani tayanch va suyanch deb biladi.

Milliy g'oya deganda, ajdodlardan avlodlarga o'tib, asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta'bir joiz bo'lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqсадlarini o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, o'ylaymanki, bunday keng ma'noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo'lamiz.

Istiqlolimizni qo'lga kiritgan ilk kunlardan boshlab, biz milliy g'oyamizning eng asosiy tushuncha va tamoyillarini belgilab olish va ishlab chiqishga harakat qildik. Shu maqsadda ijtimoiy fanlar sohasidagi yetakchi olimlar, siyosatshunos va iqtisodchilar, ijodkor ziyolilar, keng jamoatchiligimiz e'tiborini ana shu muhim masalaga qaratdik. Xalqimizning asriy orzusi, ko'zlagan yuksak maqsadlarimizga yetishning asosiy omili – avvalambor mustaqillikni asrab-avaylash, uni yanada mustahkamlash bilan bog'liq ekanidan kelib chiqqan holda, milliy g'oyamizning ma'no-mazmunini ham ana shunday mezonlar negizida belgilashni vazifa qilib qo'ydik va bu borada bir qancha e'tiborga loyiq ishlarni amalga oshirdik.

Ayni paytda hozirgi murakkab va tahlikali zamon talablari, jamiyatimizni yangilash, mamlakatimizni modernizatsiya qilish bilan bog'liq maqsadlarimizga uyg'un va hamohang ravishda hayotning o'zi oldimizga yangi-yangi vazifalarni qo'ymoqda.

Tabiiyki, milliy g'oyamiz shu yurtda yashayotgan barcha odamlarning olijanob niyatlarini, hayotiy manfaatlarini mujassam etadigan yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi degan yuksak tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Butun insoniyat tarixi, xalqimizning necha ming yillik o'tmishi achchiq saboq va xulosalar asosida bir haqiqatni isbotlab bermoqda. Ya'ni, biz barqaror taraqqiyot va farovon hayotga erishish yo'lida o'z oldimizga qanday reja va dasturlarni qo'ymaylik, barcha olijanob orzu-intilishlarimizni amalga oshirishning yagona sharti va garovi – bu tinchlik va osoyishtalikdir. Bejiz emaski, yurtimizdagi qaysi xonadonga kirmang, qanday yig'in yoki ma'raka bo'lmasin, fotihaga qo'l ochilganda, yoshu qari, erkagu ayol – barchamiz yaratgandan tinchlik va osoyishtalikni so'rab duo qilamiz.

Ma'lumki insonning eng ustuvor va muqaddas huquqlaridan biri – bu tinch yashash huquqidir. Davlat va jamiyatning burchi ana shu huquqni barcha qonuniy vositalar bilan kafolatlab berishdan iborat. Bu huquqni amalga oshirish – davlat va jamiyatni demokratiyaning eng muhim shartidir. Demokratiyaning insonparvarligi ham birinchi galda ana shu mezon bilan o'lchanadi.

Milliy g'oyamizning asosiy mazmunini ifoda etadigan yo'nalishlar haqida gapirganda, hech shubhasiz, biz Vatan ravnaqi va taraqqiyotini tasavvur qilamiz.

O'z kindik qoni to'kilgan, ota – bobolari xoki yotgan ona yurtni dunyoda tengsiz, muqaddas Vatan deb biladigan odamning maqsad – muddaolari aniq, g'urur va iftixori yuksak bo'ladi.

Vatan ravnaqi avvalo uning farzandlariga, ularning ma'naviy va jismoniy kamolotiga bevosita bog'liq. Bu o'z navbatida har bir yurtdoshimizni zimmasidagi yuksak fuqarolik mas'uliyatini his etishga, o'z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib yashashga da'vat etadi. Va har qaysi fuqaro o'z mamlakatining xalqaro hamjamiyat safidan munosib o'rin olishi, bugungi kunda taraqqiy topgan tinch va badavlat yashayotgan davlatlar qatoriga ko'tarilishidan manfaatdor bo'lishi shubhasiz. Bugungi kunda mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini barpo etishda erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish masalasi biz uchun g'oyat dolzarb ahamiyatga ega.

Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimizning samaradorligi, avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf – odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir.

Shu boisdan ham, o'z haq – huquqini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, yon – atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil yondasha oladigan, ayni zamonga shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash vazifasi istiqbol yillarida biz uchun hal qiluvchi masalaga aylandi.

Ma'lumki, bugun biz yurtimizda xalqimiz xohish-irodasining ifodasi bo'lgan Konstitutsiya va qonunlar asosida demokratik, dunyoviy davlat barpo etmoqdamiz. Bu davlat avvalambor dunyoviy taraqqiyotga, uning eng ilg'or yutuq va natijalariga tayanadi.

Ayni paytda shuni ham unutmaslik kerakki, dunyoviylik – bu dahriylik degani emas. Din va diniy e'tiqod butunlay rad etiladigan hayot qanday g'ayriinsoniy ko'rinishga ega ekanini biz kechagi tariximiz misolida yaxshi bilamiz. Bunday mafkuraning xatarli tomoni shundaki, u necha asrlar davomida din negizida shakllangan, xalq hayotining ajralmas qismiga aylanib ketgan qadriyatlar – bu yozma yoki og'zaki, moddiy yoki ma'naviy meros bo'ladimi, axloq yoki an'analar bo'ladimi, milliy dunyoqarash yoki turmush tarzi bo'ladimi – bularning barchasini rad etadi. Natijada odamzot o'zining ichki dunyosi, his-tuyg'u va qarashlar, tayanib-suyanib turadigan poydevoridan mahrum bo'lib, «sho'ro dohiylari» aytganidek, ulkan davlat mashinasining «vintchasi» ga aylanadi. Oxir-oqibatda bunday odam ota – onasini ham, o'z millati, xalqi va Vatanini ham tanimaydigan ayanchli holatga tushib qoladi.

Sobiq mustabid tuzum aynan ana shunday yovuz maqsadlarni ko'zlar edi. Shuning uchun kommunistik mafkura avj olgan davrlarda, xususan, o'tgan asrning 80-yillari oxirlarida xalqimizning boshiga qanday azob-uqubatlar yog'dirilganini, albatta, hech qachon unutib bo'lmaydi.

O'sha mash'um yillarda ko'pchilik hatto janoza marosimlariga borish, yaqin kishisini yo'qotgan odamlardan ko'ngil so'rashga ham hayiqib qolgan edi. U yog'ini so'rasangiz, ba'zi mas'ul lavozimda ishlaydigan odamlar mafkura tazyiqidan yurak oldirib, ota-onasi qazo qilganda dafn marosimlarida ishtirok etmaslikka ham majbur bo'lgan edi.

Lekin har qanday shafqatsiz ta'qiblarga qaramasdan, xalqimiz baribir o'z muqaddas diniga sodiq qoldi. Shuning o'ziyoq dinni inson, xalq va jamiyat hayotidan aslo o'chirib bo'lmasligidan yana bir bor dalolat beradi.

Biz muqaddas dinimizning xalqimiz tarixidagi ana shunday beqiyos o'zni va ta'siri inobatga olgan holda, uni har tomonlama tiklab, hayotimizdan mustahkam munosib o'rin olishiga erishdik.

Ayni vaqtda bugungi murakkab va shiddatli zamonda jahonda o'z o'rnini topishga intiladigan har qanday xalq va milliy umumbashariy taraqqiyot yutuqlarini har tomonlama chuqur va puxta egallashi shartligini barchamiz yaxshi tushunamiz. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy o'tgan asrning boshidayoq «Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur», degan haqqoniy fikrlar bilan Turkiston ahlining ongu shuurini uyg'otishga da'vat etgani bejiz emas, albatta. Bu so'zlarning qanchalik haqiqat ekanini bugungi yuksak tafakkur va texnologiyalar ham isbotlamoqda.

Chindan ham, agarki hozirgi vaqtda dunyoviy ilm-fan va texnologiyalarni chuqur o'zlashtirmasak, faqat tariximiz, olis ajdodlarimizning kashfiyotlari bilan maqtanib, ularga mahliyo bo'lib yashaydigan bo'lsak, ana shu noyob merosni asrab-avaylab, yanada boyitib, unga o'z hissamizni qo'shmasak, zamon bilan hamqadam bo'lib yurmasak, bizning jahon maydonida munosib o'rin egallashimiz qiyin bo'ladi.

Shuning uchun ham bu masalaga yondashuvda hadisi sharifda aytilgan «Bu dunyoni deb u dunyoni, oxiratni deb bu dunyoni unutmang» degan mazmundagi so'zlarni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur, deb o'ylayman.

Bizning ma'naviy hayotimiz ana shu ikki asos, ikki tayanch nuqtaning ustida mustahkam turishi lozim. Bordiyu ana shu asoslardan birortasi bo'shashgudek bo'lsa, yana o'zgalarga tobe va qaram bo'lishimiz hech gap emas. Bugungi dunyoning pastu balandini tushunadigan har qanday aqli raso odam buni yaxshi anglaydi, albatta.

Farzandlarimizga ana shu haqiqatlarni, ya'ni dunyoviy va diniy qadriyatlar o'rtasidagi nozik munosabatlarning mohiyatini har tomonlama to'g'ri tushuntirib berishimiz lozim. Tarix va hayot taxribasi shundan dalolat beradiki, dunyoviy va

diniy qadriyatlar bir-birini to'ldirmas ekan, bugungi kunning og'ir va murakkab savollariga to'laqonli javob topish oson bo'lmaydi.

Shu ma'noda, biz muqaddas dinimiz arkonlari va qadriyatlarini doimo ulug'lab, shu bilan birga, dunyoviy hayotga ham qat'iy ishonch bilan intilib yashagan taqdirdagina o'z ezgu maqsadlarimizga yeta olamiz.

Shuni aytish lozimki, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada ma'naviy hayotimizning uzviy qismiga aylanib ketgan hashar odati istiqloq davrida yangicha ma'no-mazmunga ega bo'lib, umummilliy an'ana tusini olgani barchamizni mamnun etadi.

Har yili Navro'z va Mustaqillik bayramlari arafasida o'tkaziladigan umumxalq hasharlari buning tasdig'idir. Ana shu hasharlar paytida mahalla va guzarlar, yo'llar va maydonlar, bog'u rog'larni tartibga keltirish, dov-daraxtlar o'tqazish, kam ta'minlangan, muhtoj bolalar, yolg'iz va qarovchisiz keksalarga Amaliy yordam ko'rsatish, hech shubhasiz, jamiyat tafakkurining yangilanishiga kuchli ta'sir qilmoqda.

Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini o'z maqsad-muddaolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma'naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iltiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chanakam tarix bo'ladi. Biz bu masalaga ana shunday ilmiy asosda yondashib, qadimiy tariximizni o'rganish va baho berishda uning biror-bir davri yoki jabhasini e'tibordan chetda qoldirmaslikka harakat qildik.

2.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida psixik jarayonlarini aniqlash metodlari

Yangi maktab sharoitiga o'rganish, ko'nikish, o'qishning dastlabki davri alohida diqqat – e'tiborni talab qiladi. Bu paytda ba'zi bolalar sertashvish, serjahl, salga achchiqlanadigan, yig'loqi bo'lishi mumkin. Mana shuning uchun bola hayotining shu bosqichida eng qulay sharoitni, muloyim psixologik iqlimni yaratish o'ta muhimdir.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, yaxshi psixologik iqlim ta'limning o'yin formadagi metodlari bilan bir qatorda bolalarning aqliy ishchanligini oshiradi. Bolaning aqliy ishchanlik qobiliyati esa normal sharoitlarda sutka, hafta va o'quv yili davomida mumkin bo'lgan me'yor doirasi o'zgarib turadi. Ishchanlim qobiliyatining past, o'rta va yuqori darajada bo'lishi har bir bolaning ritmiga mos bo'ladi. Bolalarning tabiiy imkoniyatlariga mos keladigan ta'lim mazmunining hajmi, o'quv vazifalari va ta'lim usullarining qiyinlik darajasi, so'zsiz, bolalarning psixik va jismoniy sihat – salomatligiga ta'sir etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kun tartibida faqat to'la qimmatli tungi (individual xususiyatlariga bog'liq holda 10 soatdan to 12 soatgacha davom etadigan) uyqugina emas, balki kunduzgi uyquning ham bo'lishi, ayniqsa, muhimdir. Bola rejimida ochiq havoda o'tkaziladigan harakatlar ayniqsa ahamiyatlidir, chunki ular kam harakatlilikning zararli oqibatlarini yo'qotadi. O'yinda, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida, jismoniy mehnatda ro'y beradigan optimal jismoniy o'sishining ham psixikaga yaxshi ta'sir etishi asosli ravishda tasdiqlangan. Zotan, gavda harakatining yurak, o'pka va boshqa organlarning ishiga hamda butun modda almashinuvi jarayoniga stimuly beruvchi roli katta. Mana shuning uchun ham o'quvchilarga mo'ljallangan 35 minutlik darslarda fizkul'timut, haftada 2-3 darsni jismoniy tarbiyaga jaratish, toza havoda sayr qilish, sport o'yinlari o'tkazish ko'zda tutiladi.

Ba'zi bolalarda u yoki bu normadan chetga chiqarish hollari qaddi – qomatning buzilishi, yaqinni ko'rish, uzoqni ko'rmaslik, vaznning pasayib ketishi, qon tarkibida gemoglobin miqdori kamayishi, bosh og'rig'i, lanjlik, o'ta

ta`sirlanuvchanlik hollari ham ro`y berishi mumkin. Bunday holatlar o`qish uchun zarur bo`lgan sharoitlar yaratilmagan, rejim talablari bajarilmagan hollarida yuzaga keladi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining maktabda muvaffaqiyatli o`qishini ta`minlashda ko`p narsa ularga ta`lim va tarbiya berishning psixologik – pedagogik shart – sharoitlariga ham bog`liqdir. Olimlar va amaliyotchilarning olib borgan ishlari natijasida buning uchun ancha yaxshi asos (negiz) yaratilgan. Olti yoshli bolalar uchun yengillashtirilgan plan programmalar ishlab chiqilgan, o`qiy olish malakasini, boshlang`ich elementar savodni, hisoblash va yozishni o`zlashtirishni, tevarak – atrofni bilish, mehnat, muzika va rasm chizish kabi malakalrni egallashni o`z ichiga olgan ta`lim va tarbiyaning ma`lum sistemasi yaratilgan. Ko`pgina Respublikalar qatori bizning Respublikada ham bolalar yoshiga mos qiziqarli alifbe, maxsus daftarlar, matematika bo`yicha darsliklar, husnixatlar va boshqa shu kabi qo`llanmalar tayyorlangan. Rus tili o`rgatiladigan milliy maktablar va bolalar bog`chalari o`qituvchilari va o`quvchilari uchun qo`llanmalari ustida ish olib borilayotir. Asosiy vazifa olti – yetti yoshli bolalarni o`quv axborotlari bilan zo`riqtirib yubormaslik, ularning aqlini zerikarli va bir xildagi topshiriqlar bilan so`ndirib qo`ymaslik, faqat tafakkurni o`stirishdangina iborat bo`lib qolmay, balki bunda bola emotsiyasining, javob reaksiyasining bolalarcha soddaligini va jozibaliligini ham e`tiborga olishdir.

O`quv protsessini tashkil etishda bolalar bog`chasining amaliy tajribasi kabi maktabgacha tarbiya pedagogikasi va bolalar psixologiyasi bo`yicha yaratilgan ishlanmalar katta ahamiyatga ega. Olti yoshli bolalar ta`lim – tarbiyasi uyishtirishdagi eng harakterli narsa – bu o`quv mashg`ulotlariga o`yin elementlarini kiritishdir. Lekin bu o`yin odatdagi bolalar ermagi va ko`ngil ochishlaridan farq qiladi va u mashg`ulotlardan alohida didaktik ahamiyat kasb etadi.

Amaliyotdan ma`lumki, o`qish ta`limda yetakchi o`rinni egallashdi. Olti yoshli bolalar yetti yoshli bolalarga nisbatan o`qishga o`quvliroq ekanligi ishonarli tarzda asoslab berilgan.

Ba`zi tadqiqotchilarning ma`lumotlariga qaraganda yozish malakasini egallashda kichkintoylarni shoshirmaslik kerak. Chunki bu malaka olti yoshli bolalarga nisbatan sekinroq tarkib topadi. Aslida bir qator metodik usulalardan foydalangan holda olti yoshli bolalarni qalamni to`g`ri ushlay bilishga, daftardan foydalanishga, qo`l barmoqlari va panjalari bilan ritmik harakatlar qilishga, chiziqning yo`nalishini aniqlay olishga o`rgatish zarur.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari matematikaga oid programmani normal o`zlashtira oladilar. Ular o`n ichida sanashni, oddiy masalalarni yechishni biladilar, ko`p – oz, teng – teng emas, uzun – qisqa kabi matematik nisbatlarni aniqlay oladilar. Lekin maktabda o`qish boladan katta mehnat va iroda kuchini talab qiladi. Bolani o`qishga psixologik tayyorlash uning maktabda muvaffaqiyatli o`qishini ta`minlaydi.

Fan va praktika bir yil oldin o`qishga sekin – asta o`tish uchun lozim nazariya va ilmiy negizni tayyorladi. Lekin bu katta iqtisodiy va pedagogik vazifalarni hal qilish bilan bog`liq bo`lgan masaladir. Olti yoshli ta`lim tarbiya oladiga sharoitni yaratishda aniqlangan barcha qiyinchiliklar va kamchiliklarni hisobga olish va tugallash zarur. Kuzatishlardan olingan ma`lumotlarning ko`rsatishicha, bolalarga meditsina xizmati ko`rsatish hamma yerda ham yaxshi yo`lga qo`yilgan deya olmaymiz. Bir qator maktab va bolalar bog`chalari o`quv materiallari bilan yetarli me`yorda ta`minlamagan, binolar yetishmaydi, o`qish va dam olish rejimlarini buzish hollari uchraydi.

Idrok qilishni diagnostikalash metodlari.

Rasmda nima yetishmaydi? (Rasm 1)

Bu metodika rasm ko`rsatilib nima yetishmasligi so`raladi va sekundlar bilan vaqt aniqlanadi. Vaqtga qarab esa ball aniqlanadi.

10 bal-25 soniya 7ta buyum aytilsa

8-9 bal-26-30 soniya 7 ta buyum aytilsa

6-7 bal-31-35 soniya 7 ta buyum aytilsa

4-5 bal-36-40 soniya 7 ta buyum aytilsa

2-3 bal-41-45 soniya 7 ta buyum aytilsa

0-1 bal-45 soniya 7 ta buyum aytilsa

Rivojlanish darajasi


10 bal-juda yuqori

8-9 bal- yuqori

4-7 bal-o'rta

2-3 bal-past

0-1 bal-juda past



Rasm 1

2. Bu yerda nima tasvirlangan? (Rasm 2)

Bu metodikada bolaga yaxshilab tushuncha beriladi va ketma-ketlik bilan (a,b,v,g) ko'rsatiladi. Demak «a»ni ko'rsatgandayoq bilsa to'liq ko'rsatiladi va vaqt belgilanadi. Agar bilmasa «b» ko'rsatiladi va h.k.

Natija quyidagicha aniqlanadi «a» 10 soniyagacha, «b»(a+b), v(a+b+v) va hk.

10 bal «a» dan 10 soniyagacha

7-9 bal «b» dan 11-20 soniyagacha

4-6 bal «v» dan 21-30 soniyagacha

2-3 bal «g» dan 30-40 soniyagacha

0-1 bal bilmasa


Rivojlanish darajasi.

10 bal-juda yuqori

8-9 bal- yuqori

2-3 bal-past

0-1 bal-juda past



Rasm 2

3. Rasmda qanday buyumlar yashiringan? (Rasm 3)

Rasmni (1,2,3) ketma-ketlik bilan ko'rsatilib qanday buyumlar yashiringani so'raladi va natija aniqlanadi. Metodikani o'tkazishda rasmlar ketma-ketlik bilan, bittasini yechgandan so'ng keyingisiga o'tish lozim.

Natijani baholash.

10 bal-20 soniyada 14 ta buyumni topsa

8-9 bal-21-30 soniyada 14 ta buyumni topsa

6-7 bal-31-40 soniyada 14 ta buyumni topsa

4-5 bal-41-50 soniyada 14 ta buyumni topsa

2-3 bal-51-60 soniyada 14 ta buyumni topsa

0-1 bal-61 soniyadan ko'proq vaqtda 14 ta buyumni topsa

Rivojlanish darajasi


10 bal-juda yuqori

8-9 bal- yuqori

4-7 bal-o'rta

2-3 bal-past

0-1 bal-juda past



Diqqatni diagnostikalash metodlari

1. Izlab top va o'chir. (Rasm 4-5)

Bu metodikada bolaga rasmni ko'rsatib qo'yidagi topshiriq beriladi. «Biz sen bilan o'yin o'ynaymiz. Men senga biror buyumning aytaman va «boshladik» deyman. Sen uni topib o'chira boshlaysan, «to'xtadik» deyishim bilan to'xtaysan. Men boshqa buyumni aytaman va yana «boshladik» deyman sen yana topib o'chira boshlaysan, «to'xtadik» deyishim bilan to'xtaysan».

Bunda 2,5 minut davomida 5 marta (har 30 soniyada) «boshladik», «to'xtadik» deyiladi va 2ta buyum aytiladi (masalan eniga yulduzcha, bo'yicha uy)

Natija aniqlash

Natijani aniqlash qo'yidagi formula asosida hisoblanadi.

$$S = \frac{0,5N - 2,8n}{T}$$

Bunda S-o'rganilayotgan diqqatning unumdorlik va barqarorlik darajasi.

N-o'yin-o'rganish davomida bolaning rasmdagi ko'rsatgan buyumlar soni (hammasi)

T-sarflangan ish vaqti

n-xato (ya'ni aytilgan narsaning qolganlari, bola belgilamay ketganlar soni)

Natija

10 bal-S=1,25 bal

8-9 bal-S=1,00 baldan 1,25 balgacha

6-7 bal-S=0,75 baldan 1,00 balgacha

4-5 bal-S=0,50 baldan 0,75 balgacha

2-3 bal-S=0,24 baldan 0,50 balgacha

0-1 bal-S=0,00 baldan 0,24 balgacha

Diqqatning barqarorligi (rasmga qarang)

10 bal-hamma nuqta 1-egri chiziq hududida

8-9 bal-hamma nuqta 2-egri chiziq hududida

6-7 bal-hamma nuqta 3-egri chiziq hududida

4-5 bal-hamma nuqta 4-egri chiziq hududida

2-3 bal-hamma nuqta 5-egri chiziq hududida

0-1 bal-hamma nuqta 1-egri chiziq hududida

Rivojlanish darajasi


10 bal-juda yuqori rivojlangan diqqatning unumdorligi va barqarorligiga ega

8-9 bal- yuqori rivojlangan diqqatning unumdorligi va barqarorligiga ega

4-7 bal-o'rta rivojlangan diqqatning unumdorligi va barqarorligiga ega


2-3 bal-past rivojlangan diqqatning unumdorligi va barqarorligiga ega

0-1 bal-juda past rivojlangan diqqatning unumdorligi va barqarorligiga




ega

Rasm 4



Rasm 5



Jadval 1

2. «Belgilarni qo'yib chiq». (Rasm 6)

Bunda rasm tepasidagi shakllarga belgilar qo'yib ko'rsatilgan «Sen shundan foydalanib qaysi shaklga qaysi belgi qo'yilgan bo'lsa sen ham shu belgini qo'yib chiq» deyilib 2 daqiqa vaqt ajratiladi va natija quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$S = \frac{0,5 \cdot N - 2,8n}{120}$$

Bunda S=diqqatning ko'chishi va taqsimlanishi. N=belgilangan vaqt davomida bajarilgan ish (belgi to'g'ri quyilgan shakllar soni). n=xato

Natijani aniqlash

10 bal-S=1,00 dan ko'p

8-9 bal-S=0,75 baldan 1,00 balgacha

6-7 bal-S=0,50 baldan 0,75 balgacha

4-5 bal-S=0,25 baldan 0,50 balgacha

0-3 bal-S=0,00 baldan 0,25 balgacha

Rivojlanish darajasi


10 bal-juda yuqori

8-9 bal- yuqori

6-7 bal-o'rta

4-5 bal-past

0-3 bal-juda past



Rasm 6

3. «Eslab qol va nuqtalarni qo'yib chiq» (Rasm 7)

Bu metodikada diqqatning hajmi o'lchanadi. Buning uchun qog'oz 8 bo'lakka bo'linib kvadrat chiziladi va nuqtalar qo'yiladi, qirqib olinib ketma-ketlik bilan qo'yiladi (nuqtalar soniga qarab 2dan boshlab 9 tagacha (9 pastda)).

Bajarish tartibi. Bolaga 8ta bo'sh kvadratlar berilib unga 1-2 soniya davomida 1-kvadrat ko'rsatiladi va u bo'sh kvadratga nuqta qo'yadi, o'yin shunday 15 soniya davom etadi. Xatosiz bajarilgan kartochkalar olinib nuqtalar sanab chiqiladi.

Natijani baholash.

10 bal-belgilangan vaqtda bola 6 va undan ortiq to'g'ri nuqta qo'ysa

8-9 bal-belgilangan vaqtda bola 4-5 to'g'ri nuqta qo'ysa

6-7 bal-belgilangan vaqtda bola 3-4 to'g'ri nuqta qo'ysa

4-5 bal-belgilangan vaqtda bola 2-3 to'g'ri nuqta qo'ysa

0-3 bal-belgilangan vaqtda bola 0-1 to'g'ri nuqta qo'ysa

Rivojlanish darajasi


10 bal juda yuqori

8-9 bal yuqori

6-7 bal o'rta

4-5 bal past

0-3 ball juda past



Rasm 7

Tasavvurni diagnostikalash

1. «Hikoya o'ylab top»

Bolaga 1 daqiqa davomida biror kishi, narsa yoki hikoya, ertak aytib terishga tayyorlanish va 2 daqiqa aytish topshiriladi.

Natijani baholash

Bolaning tasavvuri quyidagicha baholanadi:

1. Hikoya tuzish tezligi
2. Hikoyaning qiziqarliligi
3. Obrazlarning har xilligi
4. Hissiyot, mimika, pantomimkaning ishlatilishi
5. Qism, bo'lak, so'zlarning ishlatilishi.

Yuqorida berilgan 5 ta shart odan 2 balgacha baholanadi. Hikoya tuzishga ketgan vaqt (0 dan 1 daqiqa) 0-2 bal bilan baholanadi.

Rivojlanish darajasi

10 bal-juda yuqori

8-9 bal- yuqori

4-7 bal-o'rta

2-3 bal-past

0-1 bal-juda past

2. «Biror narsa chizib ber».

Bolaga qog'oz, flomaster berib bir narsa chizib berish topshiriladi. Iloji boricha biror bir antiqa narsa bo'lsa yaxshi bo'lardi deyiladi.

Natijani aniqlashda originallik, detallariga, fantaziyaga, tasavvurning boyligiga, nafosatligiga, vaqtiga e'tibor beriladi. Natija oldingidek 10 bal bilan baholanadi.

3. «Biror o'yin o'ylab top».

Bolaga 5 daqiqa davomida o'yin o'ylab topib aytib berish topshiriladi va u quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. O'yinning nomi
2. Qanday mazmunga egaligi
3. Nechta bola qatnashadi
4. Har bir kishining roli
5. O'yin qanday o'ynaladi
6. O'yin qoidalari
7. O'yin natijasi
8. Qanday baholanadi (jamoalar, har bir kishi va h.k).

Natija 10 bal bilan baholanadi.

Xotirani diagnostikalash metodlari

1. «Rasmni eslab qol» (Rasm 8-9)

Bu metodika xotiraning qisqa muddatli ko'rish xotirasi turini aniqlab beradi. Bunda quyidagicha topshiriq beriladi: «beshta shaklni rasmda qaysilari borligini ko'rsat. Ikkinchisida sen ko'rmaganlaring ham bor». Keyin bolaga 30 soniya davomida 1-rasm ko'rsatiladi va olib qo'yiladi. Bola 1,5 daqiqagacha topib ko'rsatishi kerak.

Natijani baholash

10 bal-45 soniyada 9ta shaklni aniq ko'rsatsa.


8-9 bal-45-55 soniyada 7-8ta shaklni aniq ko'rsatsa.

6-7 bal-55-65 soniyada 5-6ta shaklni aniq ko'rsatsa.


4-5 bal-65-75 soniyada 3-4ta shaklni aniq ko'rsatsa.

2-3 bal-75-85 soniyada 1-2ta shaklni aniq ko'rsatsa.

0-1 bal-90 soniyada birorta ham shaklni ko'rsatsa olmasa.



Rasm 8



Rasm 9

2. «So'zlarni yodla».

Bu metodika asosida xotiraning bilish jarayonidagi rolini aniqlash mumkin. Bolaga 12 ta so'z (daraxt, qo'g'irchoq, qoshiq, gul, telefon, stakan, piyola, qush, palto, lampochka, rasm, odam) aytiladi. Bola eslaganini aytib beradi. Bu o'yin olti marta takrorlanadi va yodlab aytib berilgan sonlar sanaladi.

Natijani baholash.

10 bal-6 va undan kam urinishda 12 so'zni yodlab aytsa

8-9 bal-6 va undan kam urinishda 11-10 so'zni yodlab aytsa

6-7 bal-6 va undan kam urinishda 8-9 so'zni yodlab aytsa

4-5 bal-6 va undan kam urinishda 6-7 so'zni yodlab aytsa

2-3 bal-6 va undan kam urinishda 4-5 so'zni yodlab aytsa

0-1 bal-6 va undan kam urinishda 3 so'zni yodlab aytsa

Rivojlanish darajasi

10 bal-juda yuqori

8-9 bal- yuqori

4-7 bal-o'rta

2-3 bal-past

0-1 juda past

Tafakkurni baholash metodikasi

Obrazli-mantiqiy tafakkurni aniqlash

1. «Chalkashlik». (Rasm 10)

Bu metodikada bolaga chalkashliklari bor rasm ko'rsatilib shu chalkashliklarni tuzatish topshiriladi va natijani aniqlash uchun (3 daqiqa) berilgan vaqtdan bola qanday foydalanib to'g'ri aytganligi hisoblga olinadi.

Natijani baholash

10 bal-3 daqiqada barcha 7ta chalkashlikni aytsa

8-9 bal-3 daqiqada barcha 7ta chalkashlikni aytsa lekin 1-3 taga izoh berilmasa

6-7 bal-3 daqiqada barcha 7ta chalkashlikni aytsa lekin 3-4 taga izoh berilmasa

4-5 bal-3 daqiqada barcha 7ta chalkashlikni aytsa lekin 5-7 taga izoh berilmasa

2-3 bal-3 daqiqada barcha 7 tadan 1-4 ta topdi izohlashga vaqt qolmadi.

0-1 bal-3 daqiqada barcha 7 tadan 4 tadan ko'p izohlashga vaqt qolmadi.



Rasm 10

2. «Bu yerda nima ortiq». (Rasm 11)

Bu metodika obrazli mantiqiy tafakkur bilan aqliy tahlil qila bilish, umumlashtirishni ham aniqlaydi. 3 daqiqa ichida berilgan 4 ta buyumdan bitta ortiqchasini aniqlash topshiriladi.

Natijani baholash

10 bal-1 daqiqada hammasini aytib izohlab bersa

8-9 bal-1-1,5 daqiqada hammasini aytib izohlab bersa

6-7 bal-1,5-2 daqiqada hammasini aytib izohlab bersa

4-5 bal-2-2,5 daqiqada hammasini aytib izohlab bersa

2-3 bal-2,5-3 daqiqada hammasini aytib izohlab bersa

0-1 bal-3 daqiqada topshiriqni bajara olmasa.

Rivojlanish darajasi.


10 bal-juda yuqori

8-9 bal- yuqori

4-7 bal-o'rta

2-3 bal-past

0-1 juda past



Rasm 11

3. «Kimga nima yetishmaydi». (Rasm 12)


Bu metodikani o'tqazishda bolaga rasmni ko'rsatmay nima qilish kerakligini tushuntiriladi va rasm ko'rsatiladi.

Natija esa quyidagicha baholanadi:

10 bal-30 soniya va undan kam vaqt sarflab aytib bersa

8-9 bal-31-49 soniya va undan kam vaqt sarflab aytib bersa

6-7 bal-50-69 soniya va undan kam vaqt sarflab aytib bersa
 4-5 bal-70-89 soniya va undan kam vaqt sarflab aytib bersa
 2-3 bal-90-109 soniya va undan kam vaqt sarflab aytib bersa
 0-1 bal-110 va ko'p soniya vaqt sarflab aytib bersa



Rasm 12

Ko'rgazmali-harakatli tafakkurni aniqlash.

1. «Konturni chiz». (Rasm 13-14)

Bu metodikada bolaga qalam berib rasmdagi konturni (namuna) chizilmagan rasmni chizish topshiriladi (rasm).

Natijani baholash

10 bal-90 soniyada topshiriqni to'g'ri aniq bajarsa (burchak va to'g'ri chiziq aniq)


8-9 bal-90-105 soniyada ayrimlarida xatolik bor (1-2ta)

6-7 bal-105-120 soniyada ayrimlarida xatolik bor (3-4ta)


4-5 bal-120-1135 soniyada ayrimlarida xatolik bor(7-8ta)

2-3 bal-135-150 soniyada ayrimlarida xatolik bor (11-20ta)

0-1 bal-150 soniyadan ko'p xatolik ko'p bo'lsa (1-2ta to'g'ri)



Rasm 13



Rasm 14


Nutqni aniqlash uchun qo'yidagi rasmlar orqali suhbat uyushtiriladi. (Rasm 15-18)




Rasm 15



Rasm 16



Rasm 17



Rasm 18

XULOSA

Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati – o'qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va shaxsning shakllanishidagi o'rni nihoyatda katta. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi rahbarligida inson ongining turili asosiy shakllarining mazmunini egallaydi va insoniy an'analar asosida harakat qilishni o'rganadi. O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda bolash shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoit yaratadi.

Birinchi bor maktabga kelgan bola o'z atrofdagilari bilan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U hayotining tubdan o'zgarganini, har kuni maktabga borish, o'quv faoliyati talablariga bo'ysunishni ham his eta boshlaydi. Oila a'zolarining bola o'quv faoliyati yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangi muomala, munosabat uning ijtimoiy mavqei o'zgarganligini to'la his etishiga, o'ziga nisbatan munosabatning o'zgarishiga asos bo'ladi. Demak, oilada bola u bilan hisoblashadigan, maslahatlashadigan yangi bir o'rinni egallaydi. Bu davrga kelib bola atrofdagilar bilan o'zaro munosabatlarga ma'lum bir natijalarga erishgan, o'zi xohlayotgan narsalarni hamda o'z oilasida o'zi egallagan o'rnini aniq biladigan bo'ladi.

Shuningdek, u o'z-o'zini boshqarish malakasiga ega bo'ladi, vaziyat va holatga qarab ish yurita oladi. Bola tasavvur qilib, atrof hayotni chuqurroq bila boshlaydi, o'z-o'zining shaxsiy tajribasidan tasavvur yordamida chetga chiqa oladi. Ijodi layoqati rivojlanadi. Shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu yoshdagi bolalarda idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq to'liq shakllanib bo'lgani uchun ham ularga ta'lim berishda kattalarga qo'llaniladigan uslublardan foydalanish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar psixik rivojlanishiga ularning atrofidagi odamlar, ota-onasi va ayniqsa o'qituvchi bilan bo'ladigan munosabati orqali erishish mumkin. Bu munosabatlardan kattalar ta'lim – tarbiya maqsadlarida foydalanishlari mumkin. Bu yoshdagi bolalar soatlab

yolg'iz holatda sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari mumkin va shu asosda ularda mehnatsevarlik va mustaqillik fazilatlari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.:, 2011 y.
2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent. "Ma'naviyat", 2008 y.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent. "O'zbekiston", 2009 y.
4. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T., "O'zbekiston" nashriyoti, 1998 y.
5. Akramova F.A. Ijtimoiy psixologiya. T.: TDPU, 2004 y.
6. Alimxodjayev S.N., Haydarov F.I. Psixologik tashxis metodikalari majmuasi. T.: TDPU, 2008 y.
7. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. T.: "Yangi asr avlodi", 2008 y.
8. Baratov Sh.R. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. T. "O'qituvchi". 1995 y.
9. Bikboyeva N.U. Bolangiz maktabga boradi. T.: "O'qituvchi", 1982 y.
10. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya.. T.: "O'zFMJ" nashriyoti, 2010 y.
11. G'oziyev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. T.: "Noshir", 2010 y.
12. G'oziyev E.G'. Muomala psixologiyasi T.: Universitet, 2001 y.
13. G'oziev E.G'. Psixologiya metodologiyasi. T.: "Universitet", 2002 y.
14. G'oziev E.G'. Psixologiya fani XXI asrda. T.: "Universitet", 2002 y.
15. G'oziyev E.G'. Pedagogik psixologiya. T.: "Universitet", 1997 y.
16. G'oziyev E.G'. Psixologiya. T.: "Universitet", 1994 y.
17. G'oziyev E.G'. Tafakkur psixologiyasi. T.: "O'qituvchi", 1994 y.
18. Davletshin M.G., Do'stmuhamedova Sh.A., Mavlonov M.M, To'ychieva S.M.,
Yosh va pedagogik psixologiya. T.: TDPU, 2004 y.
19. Davletshin M. G. Umumiy psixologiya. T., TDPU, 2002 y.
20. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. T.: TDPU,
1999 y.
21. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. T., "O'zFMJ" nashriyoti, 2008 y.
22. Ibragimov X.I., Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya. T.: "O'zFMJ", 2009 y.
23. Ibodullayev Z. Tibbiyot psixologiyasi. T.: 2012 y.
24. Karimova V.M. Psixologiya. T.: TDPU, 2000 y.

25. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. Toshkent “Turon-iqbol” 2006 y.
26. Munavvarov A.Q. Oila pedagogikasi. T.: “O’qituvchi”, 1994 y.
27. Nishanova Z.T., Tulyaganova Sh.T., Ubaydullaev A.X. O’smirlik davrida qo’rquv holatining namoyon bo’lishi. T. TDPU, 2009 y.
28. Nishanova Z. Psixik taraqqiyot diagnostikasi. T., TDPU, 2004 y.
29. Nishanova Z.T. Bolalar psixodiagnostikasi T.: TDPU, 1998 y.
30. Umarov B. M. Psixologiya. “Voris-nashriyot”. T.: -2012 y.
31. Xaydarov F.I., Xalilova N. Umumiy psixologiya. T.: 2009 y.
32. Xurvalieva G.. Maktabda psixokorreksion ishlarni tashkil etish. Xalq ta’limi jurnali. 2006y. 1-son.68-bet.
33. Yo’ldosheva Y. A., Islomova I. N “Shaxslarning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash” N-2000 y.
34. Quronov M.S., Qurbonniyozova Z.S. Ijtimoiy pedagogika.- T.: RTM, 2003 y.
35. 1001 savolga psixologning 1001 javobi. Prof. G.B. Shoumarov tahriri ostida. «Sharq». -T.: 2000 y.
36. Shoyimova M.S. Xarakter xususiyatlari. Boshlang’ich ta’lim .4 -2008 y.20-bet.
37. Inomova K., Salixojayev R. Bolalarni ruhiy rivojlanishida hamshiraning o’rni. Xalq ta’limi jurnali.2/ 2010. 102-bet.
38. Zufarova M., Umarova M. Muqaddas burchni tarbiyalashning psixologik masalalari. Xalq ta’limi jurnali 2007y. 1-son.57-bet.
39. Qodirova O. Inson qalbiga yo’l. Boshlang’ich ta’lim 2003-yil 5-con.24-b.
40. Mahmudov M. Komil inson shaxsi va ijtimoiy tajriba. “Pedagogik mahorat”, 2002, 4-son.

Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi
Qilicheva Niginaning “Boshlang’ich
sinflarda ta’lim-tarbiya jarayoni
samaradorligini oshirishning psixologik
mexanizmlari” mavzusida yozgan bitiruv
malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Bugungi kunda boshlang’ich ta’lim jarayonini tashkil etish, uning samaradorligini oshirish, kichik maktab yoshdagi bolalarga ta’lim–tarbiya berishning pedagogik va psixologik asoslarini mukammallashtirishga xizmat qiladigan qator ilmiy qarashlar, pedagogik nazariyalar shakllanganki, ular xarakteriga ko’ra, shaxs kamolotini, uning barkamol shakllanib, rivojlanib borishini ta’minlashga xizmat etuvchi ta’lim – tarbiya jarayonini tashkil qilish imkonini beradi. Sohalar bo’yicha ta’lim mazmunining negizini belgilovchi ko’rsatkichlar boshlang’ich ta’limning Davlat ta’lim standartlarida berilib, ularda maktabgacha ta’lim jarayoni bilan boshlang’ich ta’lim jarayoni orasidagi uzviylik, fanlararo aloqadorlik, ta’limning insonparvarlik, milliylik kabi tamoyillar o’z aksini topgan. Boshlang’ich ta’lim jarayoni esa maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonining uzviy davomi bo’lishi bilan bir qatorda, ta’limning navbatdagi yuqori bosqichi uchun zamin hozirlashni ham o’z vazifasi deb e’tirof etadi.

O’qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o’quvchining aql-idroki, sezgirligi, ko’zatuvchanligi, eslab qolish, esga tushurish imkoniyatlarini rivojlantirish uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Mazkur ta’lim jarayonida ularning bilimlari ko’lami kengayadi, bilimga qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Mazkur yoshdagi bolalar o’z idroklarining aniqligi, ravonligi, o’tkirligi bilan boshqa yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, o’ta

sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Tadqiqotchi Qilicheva N. o'z izlanishlarida kichik maktab yoshidagi o'quvchilar shaxsini shakllanishining psixologik mexanizmlarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganib, tadqiqot ishini batafsil yoritishga harakat qilgan.

Tadqiqotchi Qilicheva Niginaning "Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishning psixologik mexanizmlari" mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishi mustaqil bajarilgan bo'lib, talaba o'zining amaliy faoliyati bilan bog'lab yoritishga harakat qilgan. Bu ishni tugallangan bitiruv malakaviy ishi deb hisoblayman. Uni davlat attestatsiya komissiyasi oldida himoya qilish uchun tavsiya etaman.

*Navoiy shahar 2 – sonli
maktab direktori:*

Tursunnazarova K.G.

Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi
Qilicheva Niginaning “Boshlang’ich
sinflarda ta’lim-tarbiya jarayoni
samaradorligini oshirishning psixologik
mexanizmlari” mavzusida yozgan bitiruv
malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan har tomonlama etuk qilib tarbiyalash har bir yosh bosqichida amalga oshirilishi va mana shu yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o`stirish va erkin fikrlashni tarbiyalash, milliy istiqlol g`oyasini yoshlar ongiga har tomonlama singdirish va ularni ona vatanga mehr – muhabbat ruhida tarbiyalash ichki dunyosi boy, irodasi kuchli yoshlarni tarbiyalash ko`zda tutilgan.

Boshlang’ich sinf yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati – o`qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va shaxsning shakllanishidagi o`rni nihoyatda katta. Bola o`quv faoliyatida o`qituvchi rahbarligida inson ongining turili asosiy shakllarining mazmunini egallaydi va insoniy an`analar asosida harakat qilishni o`rganadi. O`quv faroliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda bolash shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoit yaratadi.

Tadqiqotchi Qilicheva N. mavzuning maqsadidan kelib chiqib, quyidagilarni yoritishga harakat qilgan: boshlang’ich sinflarda ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishning psixologik mexanizmlari ishlab chiqishda eng samarali va qulay, yo`l – yo`riqlari va usullarni aniqlab, yoshlarni barkamol shaxs qilib voyaga yetkazishni nazarda tutadi. Shu bilan birga boshlang’ich ta’limdan ko`zda tutilgan samarali natija boshlang’ich ta’lim va uni tashkil etish tamoyillari boshlang’ich ta’lim konsepsiyasida e’tirof etilgan g’oyalar asosida

yaratilgan darslik, o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyalar, boshlang'ich ta'limni tashkil etish metod va usullari, innovatsion g'oyalari o'qitishning yangi avlod vositalariga bog'liq hisoblanadi.

Tadqiqotchi Qilicheva Niginaning "Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishning psixologik mexanizmlari" mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishi mustaqil bajarilgan bo'lib, talaba o'zining amaliy faoliyati bilan bog'lab yoritishga harakat qilgan. Bu ishni tugallangan bitiruv malakaviy ishi deb hisoblayman. Uni davlat attestatsiya komissiyasi oldida himoya qilish uchun tavsiya etaman.

Psixologiya kafedrası dotsenti

X.Bobomirzayev

Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi
Qilicheva Niginaning “Boshlang’ich
sinflarda ta’lim-tarbiya jarayoni
samaradorligini oshirishning psixologik
mexanizmlari” mavzusida yozgan bitiruv
malakaviy ishiga

YAKUNIY XULOSASI

Uzliksiz ta’lim tizimidagi barcha ta’lim tarbiya muassasalaridagi yoshlarning ongini mustaqillikka asoslangan milliy istiqlol g’oyalari bilan ma’naviy, ruhiy jihatdan ongini boyitish, ular ruhiyatida bo’shliqni faqat yaxshilik uchun, ezgu maqsadlarini amalga oshirish uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma, malakalar bilan qurollantirishdir. Yoshlar ongini ma’naviy jihatdan boyitishda oila, maxalla, umumiy o’rta ta’lim, kasb-hunar kollejlari, oliy ta’lim tizimida uzluksiz qonuniyatga asoslangan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirishdagi hamkorlik jarayonida yoshlar ongida yuksak ma’naviyatga oid qarashlarni shakllantirishdan iboratdir.

Tadqiqotchi Qilicheva N. mavzuning vazifasidan kelib chiqib, quyidagilarga e’tibor qaratgan: o’quv faoliyati boshlang’ich sinf o’quvchi uchun nafqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Bu pedagogdan murakkab bilim talab etadi. Yetakchi bo’lgan o’quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar - o’yin, muloqot va mehnat faoliyati ham o’quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog’liq bo’lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O’quv faoliyati boshlang’ich sinf yoshidagi bolalarda o’qishda ma’lum yutuqlarga erishish ehtiyojini

qondirishda, shuningdek, tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishiga ham imkoniyat yaratadi.

Talaba bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobi boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishning psixologik mexanizmlari deb nomlanib, ushbu bobda boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya jarayoni va uning samaradorligini oshirishning psixologik mexanizmlari emperik jihatdan o'rgangan, psixologik tavsif bergan. Tadqiqotda kuzatish, tajriba sinov, bolalarning o'qish faoliyatini tahlil va talqin qilish, suhbat, proyektiv-rasmi metodlaridan foydalangan.

Tadqiqot mavzusini yoritishda bitiruv malakaviy ishi quyidagi tarkibda ifodalangan: kirish, ikki bob, besh band, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Tadqiqotchi Qilicheva Niginaning "Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishning psixologik mexanizmlari" mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishi mustaqil bajarilgan bo'lib, talaba o'zining amaliy faoliyati bilan bog'lab yoritishga harakat qilgan. Bu ishni tugallangan bitiruv malakaviy ishi deb hisoblayman. Uni davlat attestatsiya komissiyasi oldida himoya qilish uchun tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

dots. G.Q.To`laganova